YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 30-sentyabr, № 36-37 (8055)

BU NATIJALAR TASODIFIY EMAS. BU - MAKTAB, BU - TIZIM, BU - O‘ZBEK SHAXMATINING YANGI DARAJASI.

Shavkat MIRZIYOYEV



SAMARQAND ZAFARIDAN JAHON SHAXMAT MARKAZI SARI: PREZIDENTIMIZ CHEMPIONLAR BILAN UCHRASHDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev shaxmat va parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalari a’zolari, ularning yaqinlari, ustoz va murabbiylari bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari shaxmatchilarimizni Samarqandda o‘tkazilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasidagi tarixiy g‘alaba bilan yana bir bor tabrikladi.

– *Ikki karra Olimpiada chempioni degan yuksak va sharafli unvon barchamizga, butun O‘zbekiston xalqiga muborak bo‘lsin!* – dedi Prezidentimiz.

Samarqanddagi Olimpiadada 200 dan ortiq mamlakatdan 2 mingga yaqin shaxmatchi, jumladan, kuchli grossmeysterlar va amaldagi chempionlar ishtirok etdi. Ana shunday raqobatda yurtdoshlarimiz O‘zbekiston bayrog‘ini eng balandga ko‘tardi. G‘alabaning o‘z yurtimizda, xalqimiz ko‘z o‘ngida qo‘lga kiritilgani unga alohida ma’no bag‘ishladi.

Musobaqani bevosita kuzatish uchun Samarqandga 60 mingdan ortiq mahalliy va xorijlik mehmon keldi. Qariyb 500 ming kishi joylardagi muxlislar uchun hududlarda, teleekran va internet orqali esa millionlab vatandoshlarimiz bahslarni hayajon bilan kuzatdi.

Mamlakatimiz yetakchisi hal qiluvchi o‘yinlarga to‘xtalib, amaldagi Olimpiada chempioni Hindistonga qarshi uchrashuvni alohida esladi. Nodirbek Yoqubboyev Nihal Saringa qarshi partiyada og‘ir vaziyatga tushganiga qaramay, kurashni oxirigacha davom ettirdi. Raqibning xatosidan foydalanib amalga oshirgan taktik yurishlari jamoamizga hal qiluvchi g‘alabani olib keldi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston yakka peshqadamga aylandi. Shaxmatchilarimiz Xitoy terma jamoasini 3:1 hisobida yengdi, jahon reytingida birinchi o‘rinda turgan, olti karra Olimpiada chempioni AQSh jamoasidan ham ustun keldi.

Nodirbek Abdusattorov musobaqani birorta mag‘lubiyatsiz o‘tkazib, birinchi taxtada oltin medalga sazovor bo‘ldi. Uning jahon reytingida uchinchi o‘rinda turgan Fabiano Karuanaga qarshi murakkab endshpilda qozongan g‘alabasi ham alohida e’tirof etildi.

Davlatimiz rahbari Javohir Sindorovning Nomzodlar turniridagi tarixiy muvaffaqiyatini yodga oldi. U Olimpiadada ham sovuqqonlik va barqarorlik ko‘rsatdi. Prezidentimiz Javohirga jahon toji uchun bo‘lajak bellashuvda butun O‘zbekiston xalqi ishonishini ta’kidladi.

Olimpiadada ilk bor qatnashgan Muhiddin Madaminov hal qiluvchi kunda ukrainalik Roman Dextiarovni qora donalarda yengib, jamoaga oltin medal uchun zarur ochkoni keltirdi. Shamsiddin Vohidov esa amaldagi jahon chempioni Gukeshga qarshi qora donalarda tengma-teng kurashdi. Ta’kidlanganidek, bu g‘alabada jamoaning har bir a’zosi hissasi bor.

O‘zbekiston Olimpiadada erkaklar va ayollar o‘rtasida jami oltita terma jamoa bilan ishtirok etdi. Erkaklar o‘rtasidagi ikkinchi jamoamiz jahon reytingida oltinchi o‘rinda turgan Niderlandiyani yirik hisobda mag‘lub etdi. Uchinchi jamoa a’zosi, 17 yoshli Asrorjon Omonov sakkizta o‘yinning yettitasida g‘alaba qozondi.

– *Bizda 2-3 nafar shaxmatchi emas, balki butun boshli kuchli avlod bor desak, bu ham haqiqat,* – dedi Prezidentimiz.

Ayollar terma jamoalari ham matonat ko‘rsatdi. Birinchi jamoa 11 turning yettitasida g‘alaba qozonib, kuchli raqiblar bilan tengma-teng o‘ynadi. Afruza Hamdamova, Gulruxbegim Tohirjonova, Umida Omonova, Nilufar Imomqo‘ziyeva, Guldona Karimova va boshqa shaxmatchi qizlarning mehnati e’tirof etildi. Davlatimiz rahbari kelgusida o‘zbek shaxmatchi qizlari ham Olimpiada shohsupasining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilishiga ishonch bildirdi.

Samarqandda o‘tgan uchinchi FIDE parashaxmat olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasi ilk bor bronza medalini qo‘lga kiritdi. Selbi Kakishova yetti o‘yinda olti ochko jamg‘arib, o‘z taxtasida kumush medalga sazovor bo‘ldi. Abdulaziz Bahodirov shaxsiy hisobda bronza medalini oldi, Ahadxon Kimsanboyev esa musobaqani mag‘lubiyatsiz yakunladi. Prezidentimiz parashaxmatchilarning irodasi va mehnatini yuksak baholadi.

Uchrashuvda ushbu natijalar ortida sportchilarning ota-onalari, birinchi ustozlari, murabbiylari va ularni qo‘llab-quvvatlagan jamoalar turgani ta’kidlandi. Prezidentimiz jahon chempioni Rustam Qosimjonov tajriba va bilimini yangi avlodga yetkazib kelayotganini alohida e’tirof etdi.

– *Ustozning eng katta g‘alabasi – shogirdlarining undan ham baland marralarga chiqishidir!* – dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining FIDE tomonidan “Eng yaxshi federatsiya” deb e’tirof etilgani, Rustam Qosimjonov FIDEning faxriy vitse-prezidenti, Hulkar Tohirjonova esa Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy prezidenti etib saylangani mamlakatimizning jahon shaxmatidagi nufuzi yuksalayotganidan dalolat ekani qayd etildi.

– *Bu natijalar tasodifiy emas. Bu – maktab, bu – tizim, bu – o‘zbek shaxmatining yangi darajasi,* – dedi Prezidentimiz.

2018-yilda qabul qilingan qaror asosida maktablarda shaxmat o‘qitish, murabbiylar tayyorlash va klublarni rivojlantirish yo‘lga qo‘yildi. So‘nggi o‘n yilda 17 nafar shaxmatchimiz xalqaro grossmeyster unvoniga ega bo‘ldi, ularning besh nafari ayollardir.

Davlatimiz rahbari navbatdagi maqsadni belgilab berdi: Yangi O‘zbekistonni nafaqat Olimpiada chempioni, balki dunyo shaxmat markaziga aylantirish. Buning uchun mamlakatimizda tajriba, natija va yoshlarga namuna bo‘ladigan chempionlar borligi ta’kidlandi. Ulardan ilhomlangan minglab bolalarning shaxmatga kirib kelishi yangi iste’dodlarni kashf etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu maqsadda har bir viloyat, tuman va mahallada iqtidorli bolalarni erta aniqlash, ularni kuchli ustozlarga biriktirish va xalqaro turnirlarda muntazam qatnashishiga sharoit yaratish vazifasi qo‘yildi. Qizlar shaxmati va parashaxmatni rivojlantirish bo‘yicha alohida tizim tashkil etiladi.

Toshkent xalqaro shaxmat akademiyasining Samarqand, Xorazm va Farg‘onada mintaqaviy filiallari ochiladi. Akademiyada oliy toifali murabbiylar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. FIDE reytingida 1 ming 500 dan yuqori ball to‘plagan shaxmatchilarning xususiy klublarda o‘qish xarajatlarining yarmi davlat tomonidan qoplanadi.

Shuningdek, “O‘zbekiston Grand chess” milliy brendi ostida xalqaro turnirlar muntazam o‘tkazib boriladi. Prezidentimiz Yangi Toshkentda 500 kishilik o‘yin zali, yotoqxona va sport maydonchalariga ega zamonaviy shaxmat saroyini barpo etishni taklif qildi.

Uchrashuvda shaxmat va parashaxmat olimpiadalari g‘olib va sovrindorlarini, ularning murabbiylarini rag‘batlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilingani ma’lum qilindi. Unga muvofiq, chempionlarga uy-joy hamda avtomobil berildi. Bronza medalini qo‘lga kiritgan parashaxmatchilar ham uy-joy va avtomobil bilan taqdirlandi. Terma jamoalar bosh murabbiylari Rustam Qosimjonov va Samandar Shermuxammadov avtomobil bilan mukofotlandi.

Olimpiada chempioni bo‘lgan har bir shaxmatchiga 200 ming dollardan, ularning murabbiylariga 50 ming dollardan pul mukofoti ajratildi. Bronza medalini qo‘lga kiritgan har bir parashaxmatchiga 50 ming dollardan, ularning murabbiylariga 12 ming 500 dollardan berildi.

Prezident farmoniga muvofiq, Vatanimiz shuhratini yuksaltirishga qo‘shgan hissasi, mahorati va jasorati uchun bir guruh shaxmatchilar, ularning ustozlari va soha vakillari davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi. Uchrashuvda mazkur mukofotlarni topshirish marosimi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari mukofotlar sportchilarning bugungi g‘alabasiga berilgan baho bilan birga ularning kelgusi yutuqlariga bildirilgan ishonch ramzi ekanini ta’kidladi.

Sportchilar, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylari so‘zga chiqib, davlatimiz rahbariga shaxmat sohasiga qaratilayotgan e’tibor va yaratilgan keng sharoitlar, yuksak e’tirof uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuv yakunida Prezidentimiz terma jamoalar a’zolari va ularning ota-onalari bilan birgalikda suratga tushdi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.



O‘QITUVCHI – MEHR DARYOSI,
O‘QITUVCHI – EZGULIK BULOG‘I,
O‘QITUVCHI – MA’RIFAT QUYOSHI!

Ustozlar bugun yoshlar qalbiga qadayotgan ma’rifat va ezgulik urug‘ining hosilidan ertaga butun jamiyat bahramand bo‘ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

PREZIDENTIMIZ USTOZ VA MURABBIYLAR BILAN UCHRASHIB, TA’LIM SOHASIDAGI YANGI TASHABBUSLARNI BELGILAB BERDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida pedagoglar bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari barcha ustoz va murabbiylarni kasb bayrami bilan tabriklab, ularning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni haqida so‘z yuritdi.

– *O‘qituvchi – mehr daryosi, o‘qituvchi – ezgulik bulog‘i, o‘qituvchi – ma’rifat quyoshi!* – dedi Prezidentimiz.

Bugun sun’iy intellekt bilim olish va mehnat qilish usullarini o‘zgartirmoqda. Biroq hech bir texnologiya bolaning qalbiga ustoz kabi yo‘l topib, unga Vatanga muhabbat va mas’uliyat tuyg‘usini singdira olmaydi. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari umrini yoshlar kamolotiga bag‘ishlagan pedagoglarga minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda ta’lim va ilm-fan fidoyilarining bir guruhiga davlat mukofotlari topshirildi. Mukofotlanganlar orasida ustozlar bilan birga ta’lim rivojiga hissa qo‘shayotgan tadbirkorlar va xorijiy hamkorlar ham bor. Shuningdek, ta’limning barcha bo‘g‘inlaridagi ilg‘or pedagoglar uchun Abdulla Avloniy nomidagi alohida davlat mukofotini ta’sis etish, uning ilk sohiblarini kelasi yilgi bayram arafasida taqdirlash taklif qilindi.

Prezident ta’limni rivojlantirish Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim bo‘g‘ini ekanini ta’kidladi. Keyingi o‘n yilda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘chalar va 1,5 million o‘rinli maktablar barpo etildi, 10 mingdan ziyod ta’lim muassasasi zamonaviy ko‘rinishga keltirildi. Ayni paytda ta’limda binolardan ham muhimroq masala – o‘qitish mazmuni va sifati ekani qayd etildi.

– *Biz bolalarimizni paxta dalasidan – maktab partasiga, o‘qituvchilarni – ta’lim jarayoniga qaytardik,* – dedi davlatimiz rahbari.

Shu maqsadda 2018-yildan yangi avlod darsliklarini yaratish boshlangan edi. Xorijiy tajriba o‘rganilib, 8-sinfgacha bo‘lgan darsliklar yangilandi. Birgina joriy yilda 400 nafardan ziyod mutaxassis ishtirokida 324 ta darslik qayta ishlandi. Ular bolalarda milliy qadriyatlar, tabiatga mas’uliyatli munosabat, raqamli va moliyaviy savodxonlik bilan birga mustaqil hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. 2030-yilga qadar yuqori sinflar uchun darsliklarni yangilash ishlari ham yakunlanadi.

Islohotlar natijasi o‘quvchilarning yutuqlarida namoyon bo‘lmoqda. PISA reytingida 15 yoshli o‘quvchilar tabiiy fanlar bo‘yicha 32 pog‘ona yuqorilab, 48-o‘rinni egalladi. Shu yilning o‘zida yoshlar nufuzli olimpiadalarda 228 ta medalga sazovor bo‘ldi. Maktab davridayoq xorijiy til va fanlardan sertifikat olgan o‘quvchilar soni 100 ming nafarga yetdi.

Pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash ham o‘z samarasini bermoqda. Xalqaro va milliy sertifikatga ega o‘qituvchilar soni besh yilda 29 mingdan 143 mingga oshdi, maktablarda o‘qituvchi yetishmasligi uch barobar kamaydi. Bugun 40 ming muallim 1 ming dollardan, yana 1,5 ming nafari 2 ming dollardan yuqori maosh olmoqda. “Yil o‘qituvchisi” tanlovi bog‘cha tarbiyachilari va texnikum ustalarini ham qamrab olishi taklif etildi.

Kelgusi vazifalarga to‘xtalar ekan, Prezident maktab bitiruvchisi katta hayotga kasb va xorijiy tilni egallab chiqishi zarurligini ta’kidladi. Maktab direktorlariga bu borada qo‘shimcha vakolatlar beriladi, hamkorlikka tayyor tadbirkorlar uchun sharoit yaratiladi. Yoshlarni maktabdanoq kasbga tayyorlash va ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash bo‘yicha komissiya tuzilib, uch oy ichida yangi yechimlar e’lon qilinadi.

Iqtisodiyotning texnologik rivoji uchun matematika, fizika, kimyo va biologiyani chuqur o‘qitishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar soni 25 nafardan oshgan sinflarda ushbu fanlar ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi. Milliy sertifikatga ega o‘qituvchilarga 50 foiz ustama to‘lanadi, har yili 208 ta tuman va shahardagi yetakchi muallimlarga mukofot beriladi, ming nafar pedagog xorijda stajirovka o‘tadi. Olimpiada g‘oliblarini tayyorlagan ustozlar to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy toifaga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflar uchun ham fan olimpiadalari yo‘lga qo‘yiladi. Kelasi yildan 4-sinflar o‘rtasidagi tanlov g‘oliblari kompyuter, ularning ustozlari esa bosqichiga qarab pul mukofotlari bilan rag‘batlantiriladi. Yangi o‘quv yilidan 100 ta maktabda matematika, informatika va tabiiy fanlar ayrim sinflarda to‘liq ingliz tilida o‘qitiladi. Ushbu loyiha o‘qituvchilari va maktabga tayyorlov guruhi pedagoglariga 100 foiz ustama belgilanadi.

Maktablar faoliyatini baholash uchun “sifat indeksi” joriy etiladi. Ta’lim natijalari va pedagoglar salohiyatiga qarab muassasalar toifalarga ajratiladi. Ilg‘or maktablar o‘z tajribasi orqali boshqalarning ham yuqori toifaga o‘tishiga ko‘maklashsa, ularning pedagogik jamoasi 30 foiz ustama oladi. O‘qituvchilar malakasini oshirishda esa majburiy bir oylik kurslar o‘rniga kasbiy rivojlanish vaucherlari beriladi. Pedagoglar o‘z natijasiga qarab 18 soatdan 72 soatgacha bo‘lgan o‘quvni mustaqil tanlaydi.

O‘quvchi o‘rinlariga talab ortib borayotgani munosabati bilan xususiy maktablarni qo‘llab-quvvatlash choralari ham e’lon qilindi. O‘quv yuklamasi yuqori 52 ta tumanda ularni tashkil etish uchun imtiyozli kredit va subsidiya ajratiladi. Bo‘sh turgan davlat binolari xususiy maktablarga o‘n yilga bepul ijaraga beriladi, xalqaro akkreditatsiya xarajatining yarmi qoplanadi. Farzandi xususiy maktabda o‘qiydigan ota-onalar uchun soliq olinmaydigan daromad chegarasi ikki barobar oshiriladi.

Alohida ehtiyojga ega bolalarning tengdoshlari bilan bir muhitda o‘qishiga ham e’tibor kuchaytiriladi. Ikki yilda inklyuziv sharoit yaratilgan maktablar soni qariyb besh barobarga oshib, 3 ming 591 taga yetdi. Toshkentda ish boshlagan ko‘p funksional inklyuziv resurs maktabi tajribasi yil oxirigacha Xorazm, Jizzax va Samarqand viloyatlarida, kelgusi ikki yilda esa barcha hududlarda joriy etiladi.

Maktabgacha ta’limda bog‘cha bolaning qobiliyati kashf etiladigan maskanga aylanishi zarurligi ta’kidlandi. Ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan, o‘yin orqali ta’lim berishga qaratilgan dastur bo‘yicha 180 ming tarbiyachi va pedagog o‘qitilmoqda. Yil yakuniga qadar dastur 38 mingdan ortiq bog‘chaning barchasiga kiritiladi. Toshkentda YUNESKO shafeligidagi mintaqaviy markaz va Italiyaning Rejjio Emiliya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Davlat bog‘chalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash uch yillik dastur asosida amalga oshiriladi.

Ishli onalarni qo‘llab-quvvatlash uchun kelasi yil 1-yanvardan 2–3 yoshli farzandini oilaviy bog‘chaga bergan ayollarning badal puli budjetdan qoplanadi. Tarbiyachilarga ishlab turib oliy ma’lumot olish imkoniyati kengaytiriladi. Kelasi o‘quv yilidan ular uchun pedagogika oliygohlarida o‘qish muddati to‘rt yildan uch yilga qisqaradi; bog‘chada kamida besh yil ishlagan tarbiyachi yordamchilari ham bundan foydalana oladi.

Kasbiy ta’limda so‘nggi ikki yilda 104 ta texnikumga xalqaro dasturlar joriy etildi. Texnikumlarning 25 ming korxona bilan hamkorligi 100 mingdan ziyod yoshga o‘qish bilan bir vaqtda daromad topish imkonini berdi. Dual ta’limda kasb o‘rganayotganlarga 1 million 300 ming so‘mgacha stipendiya to‘lanmoqda. Kelasi yildan xalqaro kasb sertifikatiga ega ustalarga 50 foiz ustama beriladi, har yili 500 nafar usta xorijda stajirovka o‘taydi.

Ilk bor o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasb tanlovida 170 ming o‘quvchi ishtirok etdi. Tanlov har yili o‘tkaziladi, eng munosib ishtirokchilar 2028-yilda Tokiodagi kasblar bo‘yicha jahon chempionatiga tayyorlanadi. Xususiy texnikumlar tashkil etish uchun soliq va yer bo‘yicha imtiyozlar beriladi. Muhim sohalarga kadr tayyorlaydigan bunday muassasalar o‘quvchilarining yarmi davlat granti bilan qamrab olinadi, xalqaro dasturlarni olib kelish va laboratoriyalarni jihozlash qo‘llab-quvvatlanadi.



Oliy ta’lim haqida so‘z borar ekan, mamlakatimizda talabalar soni 1 million 600 mingga yetgani, yettita oliygoh 17 ta fan bo‘yicha xalqaro reytinglarga kirgani qayd etildi. Shu bilan birga, Prezident universitetlardagi darsliklar mazmuni va mutaxassislar tayyorlash sifati bugungi talabga to‘liq javob bermayotganini tanqid qildi. Muhandislik va tibbiyot oliygohlari zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish, ilg‘or xorijiy kitoblarni tarjima va moslashtirish ishlarini kuchaytirishi zarur.

Rektorlarning ta’lim sifati va natijasi uchun mas’uliyati oshiriladi. Davlat universitetlari kuzatuv kengashlari a’zolarining uchdan ikki qismi xususiy sektor va xorijiy oliygohlar vakillaridan shakllantiriladi. Kengashlar o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablari asosida qayta ko‘rib chiqadi, har yili kamida 50 ta darslik yaratadi. Bitiruv ishlari va ilmiy tadqiqotlar iqtisodiyot tarmoqlarining amaliy masalalariga qaratiladi.

Oliygohlarda xalqaro standartlarga asoslangan, dunyoda tan olinadigan milliy dasturlarni kengaytirish vazifasi qo‘yildi. Inxa va Arxitektura universitetlari tajribasi kelasi yildan yana 20 ta oliygohda joriy etiladi. Buning uchun ularning boshqaruv tizimi moslashtirilib, xalqaro dasturlar bilan ishlaydigan alohida tuzilmalar tashkil etiladi.

Uchrashuvda oliy ta’limda “korxona – oliygoh – maqsadli kadr” tamoyili asosida dual ta’limni rivojlantirish bo‘yicha imzolangan qaror ham muhokama qilindi. Tizim kelasi yildan 75 ta, 2028-yildan barcha oliygohlarda yo‘lga qo‘yiladi. Korxonalar o‘z ehtiyojiga mos nomzodlarni o‘qitish uchun buyurtma beradi, ular suhbat asosida qabul qilinadi. Ishga olingan talabaga to‘langan maoshning yarmini davlat qoplaydi; ish va o‘qishda yaxshi natija ko‘rsatgan yoshlar ikkinchi kursdan davlat granti asosida o‘qiydi.

Shuningdek, korxonadan talabaga biriktirilgan ustozlar rag‘batlantiriladi, zarur hollarda talabaning ijara xarajati qoplanadi. Dual ta’limni namunali tashkil etgan oliygohlar va hamkor korxonalarga mukofot beriladi. Oliygoh olgan mukofotning yarmi bu ishga hissa qo‘shgan pedagoglar jamoasiga yo‘naltiriladi.

Davlatimiz rahbari dunyoning eng kuchli 300 universiteti filiallarini mamlakatimizga jalb etish vazifasini ham belgiladi. Nufuzli universitetlar franshizasini olib kelgan xususiy oliygohlarning laboratoriya, jihoz, brend va kampus bilan bog‘liq xarajatlarining bir qismi qoplanadi. Muhandislik, qishloq va suv xo‘jaligi, energetika, sun’iy intellekt hamda tibbiyot yo‘nalishlariga ustuvorlik beriladi.

Uchrashuv davomida pedagoglarning taklif va tashabbuslari tinglandi. Yakunda Prezident ustozlarni yana bir bor kasb bayrami bilan tabriklab, ularga shogirdlari yutug‘i, ota-onalar duosi va el-yurt hurmati hamisha hamroh bo‘lishini tiladi.

***– Ustozni e’zozlash – bir kasb egasini emas, butun bir millat kelajagini e’zozlash deganidir,* – dedi davlatimiz rahbari.**

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

OQ OLTIN DALALARIDA MAS’ULIYATLI MAVSUM



Kuzning fayzli kunlari. Bekobod tumanining keng paxta dalalarida uzoq kutilgan hosilning pishib yetilgan pallasi. Dalalar bag‘rida oppoq chanoqlar ko‘zga tashlanib, dehqonlarning mehnati bilan bunyod etilgan hosilni nes-nobud qilmay yig‘ib olish uchun mas’uliyatli jarayon boshlangan.

Ayni kunlarda Toshkent viloyati ishchi guruhi tomonidan Bekobod tumanidagi qator paxta dalalarining holati ko‘zdan kechirilib, hosilning pishib yetilishi, mavjud imkoniyatlar va terimga tayyorgarlik ishlari o‘rganilmoqda.

Paxta — mashaqqatli mehnat mahsuli. Uning har bir tolasi ortida dehqonning zahmati, yil davomida olib borilgan agrotexnik tadbirlar, suv va yerga bo‘lgan e’tibor mujassam. Shu bois hosilni yig‘ib-terib olish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, ochilgan paxtani dalada qoldirmaslik va nobudgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ishchi guruh tomonidan o‘rganishlar davomida mas’ullarga dalalardagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, ochilgan paxtani o‘z vaqtida terib olish hamda hosil sifatini saqlash bo‘yicha tegishli topshiriqlar berildi. Terim jarayonlarini tartibli tashkil etish, mehnat qilayotgan insonlar uchun zarur sharoitlarni yaratish va yig‘ilgan hosilni o‘z vaqtida qabul qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mavsumning yana bir muhim jihati — daladan qabul maskanigacha bo‘lgan jarayonlarning uzluksizligini ta’minlashdir. Terilgan paxtani sifatli qabul qilish, uni belgilangan tartibda tashish va qabul maskanlarida ishlarni muvofiqlashtirish hosilning sifatini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bekobod dalalaridagi bugungi harakat bir haqiqatni yana bir bor namoyon etmoqda: mo‘l hosil — katta mehnat samarasi, uni o‘z vaqtida va sifatli yig‘ib olish esa umumiy mas’uliyatdir.

Akrom MAMADALIYEV

VILOYAT HOKIMI KUBOGI: BEKOBOD JAMOASI G‘OLIB!

Yangiyo‘l shahar sport maktabida viloyat, shahar va tuman hokimliklarida faoliyat yuritayotgan xodimlar o‘rtasida mini-futbol bo‘yicha “Viloyat hokimi kubogi” musobaqasi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu sport tadbirining asosiy maqsadi davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jismoniy faollikni oshirish, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish hamda jamoaviy hamjihatlikni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Musobaqa davomida jamoalar g‘alaba uchun qizg‘in bahs olib borib, maydonda o‘zlarining sport mahorati, jamoaviy harakati va irodasini namoyon etdilar.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, birinchi o‘rin va “Viloyat hokimi kubogi” Bekobod tumani hokimligi jamoasiga nasib etdi. Ikkinchi o‘rinni Toshkent viloyati hokimligi jamoasi, uchinchi o‘rinni esa Ohangaron shahri hokimligi jamoasi egalladi. Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindor jamoalar munosib taqdirlandilar.

Sobirjon EGAMBERDIYEV



Obuna – 2027

“YANGI BEKOBOD” GAZETASIGA OBUNA BO‘LING!

Aziz mushtariylar!

Sizni “Yangi Bekobod” gazetasining 2027-yil uchun obuna mavsumida faol ishtirok etishga chorlaymiz! Gazetamiz sahifalarida Bekobod tumanida ro‘y berayotgan yangiliklar, bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ta’lim, madaniyat, sport hamda yurtdoshlarimizning ibratli faoliyati haqida muntazam ma’lumot berib boriladi.

2027-yil uchun 1 yillik obuna narxi – 400 000 so‘m.

Chiqish darriyligi – haftada bir marta.

Obunani Zafar pochta aloqa bog'lamasi orqali rasmiylashtirish mumkin.

Manzil: Zafar shaharchasi, Usmon Nosir ko‘chasi, 9-uy

Murojaat uchun telefon: 90 947 55 22



“YANGI BEKOBOD” — HUDUD YANGILIKLARINING ISHONCHLI MANZILI!

2027-YILDA HAM BIZ BILAN BIRGA BO‘LING!

TAHRIRIYAT

XALQ MANFAATLARI — HAR BIR QARORNING BOSH MEZONI

Bekobod tumani Kengashining navbatdagi 31-sessiyasida hudud taraqqiyotining muhim masalalari muhokama qilindi.

Bekobod tumanida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi farovonligini oshirish va hudud infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan vazifalar izchil davom ettirilmoqda. Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining VII chaqiriq navbatdagi 31-sessiyasida ham ana shu maqsadlarga xizmat qiluvchi qator muhim masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Sessiya kun tartibidan tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash, aholi bandligini ta’minlash, fuqarolar daromadlarini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, ta’lim sifatini yuksaltirish, hududlarni obodonlashtirish hamda mahalliy byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish bilan bog‘liq masalalar o‘rin oldi.

Deputatlar va mas’ul rahbarlar ishtirokidagi muhokamalarda hududda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, mavjud muammolar ham ochiq-oydin tahlil qilindi. Har bir masala yuzasidan mas’ul rahbarlarning hisobot va axborotlari tinglanib, belgilangan vazifalarning ijrosi, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish choralari muhokama qilindi.

Sessiyada bildirilgan fikrlar va takliflar muhokamasi yakunida kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi. Ularning ijrosini ta’minlash uchun mas’ul rahbarlarga aniq vazifalar yuklatildi.



TA’LIM SIFATI, SHAROIT VA MAS’ULIYAT: MAKTABLARDA HOLAT QANDAY?

Maktab — nafaqat bilim beriladigan, balki yosh avlodning dunyoqarashi, ma’naviyati va kelajagi shakllanadigan muhim maskan. Shu bois ta’lim sifati bilan bir qatorda maktab binolarining holati, obodonlashtirish ishlari, pedagoglar salohiyati, o‘quvchilarning yutuqlari, xavfsizlik va mavsumiy tayyorgarlik kabi masalalar ham doimo e’tibor markazida bo‘lishi zarur.

Bekobod tumanidagi umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan o‘rganishlar ayni shu jihatlarni qamrab oldi. Natijalar esa sohada muayyan yutuqlar mavjudligini, shu bilan birga, ayrim maktablarda jiddiy kamchiliklar ham borligini ko‘rsatdi.

Yangi o‘quv yili boshlanganiga qaramay, ayrim maktablarda tayyorgarlik va “Dolzarb 40 kunlik” doirasidagi obodonlashtirish ishlari oxiriga yetkazilmagan.

3-, 8-, 38-, 60-maktablarda obodonlashtirish borasida nisbatan ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq 2-, 4-, 22-, 24-, 11-, 57-, 23-maktablarda tozalik va obodonlashtirish holati talab darajasida emasligi qayd etilgan.

Yana bir muhim masala — maktab hududlarining to‘liq o‘ralmaganidir. 42-, 54-, 33-, 57-, 53-, 23-maktablar atrofida tegishli to‘siqlar mavjud emasligi sababli hududga chorva mollari kirib, gulzorlarni payhon qilishi yoki begona shaxslar kirib, dars jarayonlariga xalaqit berishi holatlari kuzatilmoqda.

Demak, maktab hududini obodonlashtirish faqat uning tashqi ko‘rinishini yaxshilash emas, balki xavfsiz va tartibli ta’lim muhitini yaratish masalasidir.

Shu bilan birga, ijobiy tajribalar ham bor. Jumladan, 8-maktabda maktab yer fondining bo‘sh qismidan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. 19 sotix yer tadbirkorga ijara asosida berilishi orqali maktab uchun qo‘shimcha daromad manbai yaratilgan.

6- va 7-maktablarda esa sun’iy qoplamali futbol maydonlari tashkil etilib, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Bunday tajribalarni boshqa ta’lim muassasalarida ham joriy etish maktablarning moddiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

O‘rganishlar davomida pedagoglarning sifat tarkibiga ham e’tibor qaratildi.

1-, 2-, 6-, 31-, 42-, 46-, 38-maktablarda oliy va birinchi toifali o‘qituvchilar soni bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Biroq 14-, 15-, 17-, 49-, 60-, 56-, 57-, 54-maktablarda oliy toifali o‘qituvchilar yo‘q yoki atigi bittani tashkil etadi. Ikkinchi toifali pedagoglar salmog‘i ham past. Bu esa mazkur maktablarda o‘qituvchilarning malaka toifasini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Rahbar kadrlar masalasida ham muammo mavjud. Tumandagi 15 ta maktabda direktor lavozimi vakant ekani aniqlangan. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida nomzodlarda menejerlik sertifikatining mavjud emasligi ko‘rsatilgan.

2025/2026-o‘quv yilida tumandagi maktablarning 11-sinfini 2235 nafar bitiruvchi tamomlagan.

Ularning 570 nafari davlat oliy ta’lim muassasalariga, 641 nafari xususiy oliy ta’lim muassasalariga, 108 nafari texnikumlarga qabul qilingan.

Ayrim maktablarda oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori. Progress and RESULT maktabida bu ko‘rsatkich 95 foizni, tuman ixtisoslashtirilgan va Buxoro Qorako‘l maktablarida 84 foizdan tashkil etgan.

Shuningdek, 44-maktabda 47 foiz, 53-maktabda 46 foiz, 31-, 27-maktablarda 42 foizdan, 5-maktabda 53 foiz, 6-, 32-maktablarda 40 foizdan, 45-maktabda 37 foiz, 46-maktabda 36 foiz, 35-maktabda 35 foizlik natijalar qayd etilgan.

Biroq ayrim maktablarda bu ko‘rsatkich ancha past. 54-, 49-, 13-, 51-maktablarda 13 foiz, 47-maktabda 15 foiz, 22-, 4-, 57-maktablarda 14 foiz, 52-maktabda 10 foiz, 20-maktabda 11 foizlik natija qayd etilgan.

36-maktabda esa davlat oliy ta’lim muassasasiga birorta ham bitiruvchi o‘qishga kirmagan.

Bu ko‘rsatkichlar ta’lim sifati, o‘quvchilarni kasb va oliy ta’limga yo‘naltirish, fanlarni chuqur o‘zlashtirish hamda bitiruvchilar bilan individual ishlash masalalarini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kuz-qish mavsumini betalofat o‘tkazish uchun maktablarning qozonxonalari, isitish tizimlari va yoqilg‘i zaxirasi oldindan tayyor bo‘lishi lozim.

O‘rganishlarda ayrim maktablarda bu boradagi tayyorgarlik talab darajasida emasligi aniqlandi. Jumladan, 33-maktabdagi 10 ta qozonxonadan 3 tasi ta’mirtalab. 24-maktabdagi ikki qozonxonada esa qozonlar eskirgan va yaroqsiz holatga kelgan.

2-, 42-, 4-, 28-, 27-maktablarning deraza va romlari juda eski bo‘lib, xonalarni isitishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

20-, 23-, 24-, 27-, 30-, 32-, 33-, 12-maktablar hamda 6-, 7-, 10-, 12-, 16-, 31-, 33-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘mirxonalar qurilishi mablag‘ yetishmasligi sababli to‘xtab qolgan.

Ko‘mir zaxirasi bo‘yicha buyurtmalar berilgan bo‘lsa-da, o‘rganish kuniga qadar faqat 52-maktabga 16 tonna ko‘mir yetkazilgan. Yetkazilgan ko‘mirning sifati ham talabga javob bermasligi, uning mayda va tuproqqa aralashgani, yaxshi yonmasligi qayd etildi.

Bu masala, ayniqsa, sovuq mavsum boshlanishidan oldin qat’iy nazoratni talab qiladi.

Bekobod tumanidagi maktablarda o‘tkazilgan o‘rganishlar bir haqiqatni ko‘rsatmoqda: ta’lim tizimida yutuqlar ham, yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.



Bir tomonda xalqaro va respublika olimpiadalari g‘oliblari, oltin medal sohiblari, oliy ta’limga yuqori natijalar bilan kirayotgan bitiruvchilar bor. Ikkinchi tomonda esa moddiy-texnik baza, rahbar kadrlar, obodonlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bilan bog‘liq kamchiliklar turibdi.

Muhimi, muammolar o‘rganish davomida aniqlangan va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Endigi masala — belgilangan vazifalarning qog‘ozda qolib ketmasligi, har bir topshiriqning amaliy natijaga aylanishidir. Zero, maktabdagi har bir yutuq ortida ustozning mehnati, o‘quvchining intilishi va ota-onaning ishonchi turadi. Har bir aniqlangan kamchilik esa ana shu ishonchni mustahkamlash uchun o‘z vaqtida bartaraf etilishi lozim.

Ta’lim sifati — faqat baho va reyting emas. U maktabdagi muhit, ustozning salohiyati, o‘quvchining imkoniyati, bino va sharoit, xavfsizlik hamda eng muhimi, kelajak avlodga yaratilayotgan imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liq.

Gulchehra RISQULOVA,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati

YANGI TEXNOLOGIYALAR

BEKOBODDA RAQAMLI BOSHQARUV YO‘LGA QO‘YILADI

Bekobod tumani hokimligi hamda “UNICON-SOFT” MChJ o‘rtasida tumanning raqamli salohiyatini oshirish, davlat boshqaruvi jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va raqamli xizmatlarni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda Bekobod tumani hokimining raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Boqijonov hamda “UNICON-SOFT” MChJ mas’ul vakillari ishtirok etdi.

Muloqot davomida tumanda “Elektron hokimiyat axborot tizimi”-ni bosqichma-bosqich joriy etish, hokimlikning ichki ish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishini takomillashtirish, ijro intizomi va topshiriqlar nazoratini avtomatlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, aholi va tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarda raqamli yechimlardan keng foydalanish, ma’lumotlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, idoralararo axborot almashinuvini takomillashtirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini boshqaruv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida “Elektron hokimiyat axborot tizimi” loyihasini amaliyotga joriy etish, mutaxassislarning malakasini oshirish va tegishli raqamli yechimlarni bosqichma-bosqich ishga tushirish bo‘yicha hamkorlikni izchil davom ettirishga kelishib olindi.

Mazkur hamkorlik Bekobod tumanida zamonaviy, tezkor va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, raqamli xizmatlar sifatini oshirish hamda hududning raqamli salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Akmal BOQIJONOV,
Bekobod tumani hokimi maslahatchisi

XABARDORMISIZ?!

PENSIYA YOSHI UZAYTIRILADI

Pensiya — insonning ko‘p yillik mehnati va kelajakdagi ijtimoiy himoyasining muhim kafolatidir. Shu bois pensiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan har bir o‘zgarish fuqarolar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda pensiya tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, uni yanada shaffof va barqaror qilish bo‘yicha qator takliflar ilgari surilmoqda. Ularning asosiy maqsadi pensiya miqdorini fuqaroning mehnat staji, rasmiy daromadi va tizimga qo‘shgan hissasi bilan yanada uzviy bog‘lashdan iborat.

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi o‘n yilda mamlakatimizda pensiya miqdori 3,3 barobar oshgan. Pensiya hisob-kitobini takomillashtirish bo‘yicha takliflarda ish haqi hisobga olinadigan davrni amaldagi 5 yildan bosqichma-bosqich 20 yilgacha uzaytirish ko‘zda tutilmoqda. Bunda ish haqi eng past bo‘lgan ayrim davrlarni hisobdan chiqarish imkoniyati ham nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2027-yildan pensiya hisoblashda inobatga olinadigan ish haqining yuqori chegarasini 6 million so‘mdan 6,6 million so‘mga oshirish taklif qilinmoqda. Bu esa ayrim yangi pensiyaga chiquvchilarning pensiya miqdori oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Pensiya yoshiga doir masala ham takliflar qatoridan o‘rin olgan. Jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan loyihada 2028-yildan boshlab pensiya yoshini har yili 3 oydan bosqichma-bosqich oshirish va natijada erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yoshga yetkazish taklif etilgan. Ta’kidlash joizki, bu hozircha loyiha hisoblanadi va amaldagi tartibni avtomatik ravishda o‘zgartirmaydi.

Umuman, pensiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflar fuqarolarning uzoq yillik mehnatini munosib baholash, rasmiy bandlikni rag‘batlantirish, kelajak uchun jamg‘arish imkoniyatlarini kengaytirish hamda tizimning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Eng muhimi, pensiya — insonning nafaqat bugungi, balki butun mehnat faoliyati va kelajagi bilan bog‘liq masala. Shu sababli tizimdagi yangilanishlarning izchil, ochiq va puxta hisob-kitoblar asosida amalga oshirilishi muhimdir.

Lutfulla ALLANAZAROV,
Bekobod tumani Pensiya jamg‘armasi bo‘limi boshlig‘i

Sun’iy intellekt

RAQAMLI DAVRNING YANGI IMKONIYATLARI



Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda “sun’iy intellekt” tushunchasi hech kimga begona emas. Xo‘sh, aslida sun’iy intellekt nima? U qanday paydo bo‘lgan va hozirgi kunda qanday vazifalarni amalga oshirmoqda?

Bugungi kunda “Sun’iy intellekt” tushunchasi 1955-yilda John McCarthy va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tayyorlangan “Dartmouth” loyihasi taklifida ilk bor qo‘llanilgan. Keyinchalik, 1956-yilda sun’iy intellekt mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan.

Bugungi kunga kelib, sun’iy intellekt tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: sun’iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson aqliga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammolarni hal etish kabi vazifalarni bajarish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir.

Ayni vaqtda sun’iy intellektdan foydalanuvchilar soni qariyb 400 millionga yetdi. Bu ko‘rsatkichning asosiy sabablaridan biri sun’iy intellektning ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilayotganidir. Xususan, tibbiyot, ta’lim, transport, sanoat ishlab chiqarishi va dasturlash kabi yirik yo‘nalishlarda turli vazifalarni bajarishda qo‘llanilmoqda.

Bunday sohalarda sun’iy intellektdan foydalanishning bir qancha sabablari va qulayliklari mavjud. Jumladan, undan deyarli istalgan sohada foydalanish mumkin. Ya’ni, u to‘g‘ri dasturlangan taqdirda ko‘plab vazifalarni bajara oladi. Eng muhimi, vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda, bir vaqtning o‘zida ko‘plab vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

E’tiborli jihati shundaki, hozirda sun’iy intellekt inson kabi to‘liq fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lmasa-da, insoniyatning ko‘plab yutuqlarga erishishida muhim vosita sifatida qaralmoqda. Bunga sun’iy intellektga asoslangan “AlphaFold” tizimi misol bo‘la oladi. Mazkur tizim biologiyada qariyb 50 yil davomida yechimi topilmagan muammoning yechilishiga yordam berdi. Xususan, u sun’iy intellekt yordamida qariyb 200 million oqsilning uch o‘lchamli tuzilishini juda yuqori aniqlikda bashorat qildi.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda sun’iy intellektdan turli jabhalarda foydalanilmoqda va bu amaliyot o‘z samarasini bermoqda. Shu sababli mamlakatimizda ham sun’iy intellekt texnologiyalaridan qo‘llanilmoqda.

Xususan, Toshkent metropolitenida “Palm Pay” to‘lov tizimi joriy qilindi. Buning natijasida to‘lovlarni amalga oshirishda yo‘lovchilar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratildi.

Shuningdek, tijorat banklari va turli yirik savdo markazlarida “My ID” va “UzFace” tizimlarining joriy etilishi mijozlarni identifikatsiya qilish jarayonini tezlashtirish hamda firibgarlik xavfini kamaytirish imkonini berdi.


E’tiborlisi, sun’iy intellektning ta’lim tizimida ham ommalashayotgani hech kimga sir emas. Natijada o‘quvchilar uchun ta’lim olishda yangi va qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Sun’iy intellekt orqali o‘quvchilar kerakli ma’lumotlarni qisqa muddat ichida olishlari, tanlagan yo‘nalishlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishlari hamda turli yutuqlarga erishishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt inson tomonidan yaratilgan texnologiyadir. Ayrim kamchiliklariga qaramasdan, insonning doimiy aralashuvisiz muayyan vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega. Ayni vaqtda u ilm-fan va texnologiya sohasidagi muhim yutuqlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakatimizda ham qator onlayn platforma va xizmatlarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri — sun’iy intellekt yordamida ish jarayonlarini tezkor avtomatlashtirish va turli vazifalarni samarali bajarish imkoniyatidir.

Bugungi raqamli dunyoda, ayrim kamchiliklariga qaramasdan, sun’iy intellektdan oqilona va samarali foydalanish mamlakatimizdagi ayrim dolzarb muammolarni hal etishga, qolaversa, davlatimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin olishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Sardor NORQULOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti
1-bosqich talabasi

KIBERFIRIBGARLAR NAFAQAXO‘RLARNI NISHONGA OLMOQDA



Bugungi kunda internet va mobil aloqa vositalaridan foydalanish kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Biroq zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan jinoyatchilar ham o‘z g‘arazli maqsadlarida foydalanmoqda. Ayniqsa, keksa fuqarolar kiberfiribgarlarning nishoniga aylanib qolmoqda.

Buning sababi shundaki, ayrim keksa avlod vakillari zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda yetarlicha tajribaga ega emas, firibgarlarning aldovlariga tezroq ishonishi yoki shoshilinch vaziyatda yaqinlaridan maslahat olishga ulgurmasligi mumkin. Jinoyatchilar esa aynan shu holatlardan foydalanadi.

“Bank xodimi” nomidan qo‘ng‘iroq. Firibgar o‘zini bank xodimi yoki boshqa vakolatli shaxs sifatida tanishtirib, “kartangizda shubhali operatsiya aniqlandi”, “hisobingiz bloklanmoqda” kabi bahonalar bilan karta raqami, CVV kodi yoki SMS orqali yuborilgan tasdiqlash kodini so‘raydi.

Yodda tuting: bank xodimi telefon orqali kartaning maxfiy ma’lumotlari, parol yoki SMS-kodni talab qilmaydi.

“Nabira” yoki “qarindosh” nomidan qo‘ng‘iroq. Firibgar o‘zini farzandingiz yoki nabirangiz sifatida tanishtirib, “baxtsiz hodisaga uchradim”, “zudlik bilan pul kerak” kabi bahonalar bilan pul talab qiladi.

Yodda tuting: shoshilmang. Qarindoshingiz bilan boshqa raqam orqali bog‘lanib, vaziyatni tekshiring.

Soxta nafaqa va davlat xizmatlari haqidagi xabarlar. “Nafaqangiz qayta hisoblanadi”, “qo‘shimcha to‘lov olasiz” kabi xabarlar yordamida soxta havolalar yuborilib, shaxsiy yoki bankka oid ma’lumotlar so‘ralishi mumkin.

Soxta lotereya va sovg‘alar. “Siz yutuq sohibiga aylandingiz!” degan xabar ortidan “soliq”, “pochta xarajati” yoki boshqa sababni ro‘kach qilib, oldindan pul talab qilinadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi firibgarlik. Tanish yoki qarindoshingizning akkaunti buzib olinib, uning nomidan pul so‘ralishi mumkin.

Firibgarlardan qanday himoyalanish mumkin?

Notanish shaxslarga karta raqami, CVV kodi va SMS orqali kelgan kodni aytmang.

Shoshilinch pul so‘ralganida, avval vaziyatni tekshiring.

Qarindosh yoki tanishingiz nomidan kelgan g‘ayrioddiy so‘rovlarni boshqa aloqa vositasi orqali tasdiqlang.

Notanish havolalarni ochmang va ulardagi sahifalarga shaxsiy ma’lumotlaringizni kiritmang.

Shubhali qo‘ng‘iroq yoki xabar haqida farzandlaringiz va yaqinlaringizga darhol xabar bering.

Zarur hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qiling.

Kiberfiribgarlikdan himoyalanishning eng samarali yo‘llaridan biri — hushyorlik va xabardorlik. Ayniqsa, yolg‘iz yashovchi ota-onalarimiz va keksa qarindoshlarimiz bilan firibgarlik usullari haqida muntazam suhbatlashish muhim. Ba’zan bir necha daqiqalik suhbat insonning yillar davomida jamg‘argan mablag‘ini saqlab qolishi mumkin. Kiberxavfsizlik — barchamizning mas’uliyatimiz. Hushyor bo‘ling, yaqinlaringizni ham ogohlantiring!

Shubhali holatlar yuzasidan murojaat uchun: 1057 — Ichki ishlar organlarining yagona qo‘ng‘iroq markazi.

Diyorbek ABDURASHIDOV,
Toshkent viloyati Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi Uchinchi tumanlararo bo‘linmasi Kiberprofilaktika guruhi inspektori, leytenant

AGROOLAM

TABIIY MAHSULOT — SOG‘LOM HAYOT ASOSI

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida “organik mahsulot”, “organik dehqonchilik” kabi tushunchalar tobora ommalashib bormoqda. Xo‘sh, organik qishloq xo‘jaligi nima va uning an’anaviy dehqonchilikdan qanday farqi bor?

Organik qishloq xo‘jaligi — tabiiy jarayonlarga asoslangan, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik hamda inson salomatligi uchun xavfsiz mahsulot yetishtirishga yo‘naltirilgan dehqonchilik tizimidir. Bunda kimyoviy vositalardan foydalanishni cheklash, tabiiy va organik o‘g‘itlardan foydalanish, almashlab ekish, biologik himoya usullarini qo‘llash kabi tamoyillarga amal qilinadi.

Organik mahsulot yetishtirishda, avvalo, hududning iqlimi, tuproq va relyef sharoiti, suv ta’minoti kabi omillar hisobga olinadi. Tuproqning tabiiy unumdorligi, tarkibidagi gumus, mikroorganizmlar va organik moddalar miqdori muhim ahamiyatga ega.

Suv sifati ham alohida e’tiborni talab qiladi. O‘zbekistonda suvning ifloslanish darajasi suv ifloslanishi indeksi (SII) orqali baholanadi. Organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda SII bo‘yicha 1–3-toifadagi suvlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mineral o‘g‘itlardan me’yoridan ortiq foydalanish tuproq va suv resurslariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois organik dehqonchilikda go‘ng, kompost, somon, siderat ekinlar kabi tabiiy o‘g‘itlardan foydalanishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan, kasallik va zararkunandalarga chidamli ekin turlari hamda navlarini tanlash ham mo‘l va sifatli hosil olishning muhim omilidir.

Organik dehqonchilikda dukkakli-don ekinlari, jumladan, beda, soya va loviya siderat o‘g‘it sifatida keng qo‘llaniladi. Ular tuproqdagi organik moddalar miqdorini oshiradi, foydali mikroorganizmlar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi, tuproqning fizik va mikrobiologik xususiyatlarini yaxshilaydi hamda namlikni saqlashga yordam beradi.

Organik mahsulot yetishtirishda sifatli, yuqori navli urug‘likdan foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, organik dehqonchilik — tabiat bilan uyg‘un holda ish yuritish, tuproq va suv resurslarini asrash, tabiiy o‘g‘itlardan foydalanish hamda inson salomatligi uchun xavfsiz mahsulot yetishtirishga qaratilgan tizimdir.

Yurtimizda organik qishloq xo‘jaligi nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lsa-da, uning istiqboli yuqori. Rivojlangan davlatlarda organik mahsulotlarga talab katta bo‘lib, ular an’anaviy usulda yetishtirilgan mahsulotlarga nisbatan yuqoriroq narxda sotilishi mumkin. Bu esa agrar soha vakillari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

Qizig‘i, ayrim rivojlangan davlatlarda organik ekinlarni himoyalash uchun maxsus texnikalardan ham foydalaniladi. Jumladan, begona o‘tlarni nihol chiqishidan oldin yo‘qotuvchi yoki bosimli havo yordamida ularni tuproqdan chiqarib tashlovchi texnika vositalari mavjud.



Demak, organik dehqonchilik nafaqat sog‘lom va sifatli mahsulot yetishtirish, balki tuproq, suv va tabiatni asrash, shuningdek agrar sohani barqaror rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Faxriddin SHAKIROV,
Alisher AMANXO‘JAYEV,
Shohruh ESHBOYEV,
Farruh ASQAROV,
“Oybek” O‘KCHM inspektorlari

Tumanimiz tarixidan

SARYUZ — QADIMIYLIK VA MEHNAT TIMSOLI



Bekobod tumanida joylashgan Saryuz qishlog‘i va uning tub aholisi — saryuzliklar, shuningdek, Kal, Kerayit, Beshyuz, Parchayuz aholisi Dalvarzin vohasida qadimdan yashab kelayotgan aholilardan biridir. Saryuz qishlog‘i tumanning Saryuz mahallasi hududida joylashgan bo‘lib, unda qariyb 3 200 nafar aholi, 860 dan ortiq oila istiqomat qiladi.

Saryuz qishlog‘i hududiga 2 010 gektar yer maydoni biriktirilgan bo‘lib, hozirgi kunda 10 dan ortiq fermer xo‘jaligi mustaqil faoliyat yuritmoqda. Ular asosan paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik (kartoshkachilik) va pillachilik bilan shug‘ullanmoqda. Saryuz qishlog‘ida yashab o‘tgan faol jamoatchi Qodirov Abduvali boboning aytishicha, Saryuz qishlog‘ining nomlanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Saryuz yuzlar urug‘ining boshi hisoblanib, Dalvarzin volostidagi to‘qqiz qishloqdan birining nomi bo‘lgan. Ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’lumotlar, rivoyatlar va tarixiy manbalarga qaraganda, saryuzliklar bir ota-boboning avlodlari bo‘lib, Usta, Itolg‘i, Chag‘irboy va Mirza ismli to‘rt aka-ukaning avlodlaridir. 90–100 yoshdan oshib yashagan saryuzliklar Aliqulov Sanjar bobo, Mavlonov Islom hoji, Jumaboyev Tojiboy, Qodirov Abduvali va Bobomurodov Dehqonboy kabi yoshi ulug‘ insonlarning aytishicha, saryuzliklar bir necha asr oldin Surxondaryo viloyatida yashagan. Hozir ham u yerda yuzlar urug‘iga mansub aholi ko‘p. Ularning aytishicha, saryuzliklar turli sabablar bilan Surxondaryodan Tojikiston Respublikasining Hisor tumaniga ko‘chib kelganlar. Keyinchalik Xo‘jand shahridagi Inji degan joyga ko‘chib o‘tganlar. Saryuzliklar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi uchun yillar o‘tishi bilan Dalvarzin vohasiga, ya’ni hozirgi Uzunquduq, Sardob, Kichik Olti va Zafar atroflariga ko‘chib kelganlar. O‘sha paytlarda Dalvarzin cho‘llari hali o‘zlashtirilmagan, bepoyon yerlardan iborat bo‘lgan. Bu hudud chorvachilik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun qulay sharoitga ega edi.

Yillar o‘tdi. Nihoyat, Oktyabr inqilobidan keyin, 1926-yilda Dalvarzinda Bekobod tumani tashkil qilindi. Sovetlar yerlarni boylardan tortib olib, kolxozlar tuza boshladilar. 1927-yilga kelib, o‘sha paytda Uzunquduqda yashayotgan saryuzliklarni ham kolxoz tizimiga o‘tishga majbur qilishdi. Yuqoridan kelgan vakillar: “Kolxoz tuzamiz, kolxozga kirasizlar”, deb talab qo‘ydilar. Lekin hali xalq kolxoz nima ekanini, kolxozning xalqqa nima berishini bilmas edi. O‘sha paytda kolxoz tizimini to‘liq va atroflicha tushuntirib beradigan odamlar ham kam bo‘lgan. Yuqoridan kelgan vakillar bir necha marotaba qayta-qayta kelib: “Kolxoz bo‘lasizlar, bo‘lmasa bu yerdan ko‘chasizlar”, deb talab qo‘ydilar. Nihoyat, sabri tugagan, kolxozning nimaligini bilmagan xalq 1927-yilda hozirgi Do‘stlik va O‘zbekiston mahallalari hududidagi Dirjinskiy kolxozining 20-brigadasiga ko‘chib keldi.

Kolxozlashtirish paytida, 1929–1930-yillarda kolxozlashtirishga qarshi chiqib, kolxozda ishlamagan Erkayev Ashirboy, Shodmonqulov Tursunqul va Rajabov Do‘stbeklar uzoq muddatga Sibir va boshqa o‘lkalarga surgun qilindilar. 20-brigadaga saryuzliklar ko‘chib kelgan bo‘lsa-da, aholining sharoiti yanada og‘irlashdi. Chunki ushbu brigada dalalarini butunlay qamish bosib ketgan, suv ta’minoti yomon, ko‘p maydonlari sho‘rlangan yerlardan iborat edi. Bundan tashqari, aholi va ularning qoramollari kechasi chaqadigan yirik pashshalarga bardosh bera olmadilar. Ular o‘sha yerda 1932-yilgacha yashadilar. Nihoyat, sharoiti og‘ir, iqtisodiy ahvoli qiyinlashgan xalq 1932-yilda yuqori tashkilotlardan ruxsat so‘rab, 1933-yilda hozirgi Saryuz qishlog‘iga ko‘chib keldi.

1930-yillarga kelib, Kalpakova loyihasi asosida ariq qazilib, Oybek (Chanoq)gacha suv yetib bordi. Dehqonchilik va chorvachilik uchun nisbatan yaxshi sharoit yaratildi. Saryuzliklar oxir-oqibat kolxoz nimaligini tushunib, Oxunboboyev nomli kolxoz tuzib, ishlay boshladilar. Keyinchalik qishloqda yana bir Qushbishev kolxozi tuzildi. Lekin ushbu ikki kolxozning yerlari qumloq, kam hosilli bo‘lgani hamda xo‘jaliklar kuchli shamol zonasida joylashgani sababli rivojlanmadi va xalqning daromadi oshmadi. Keyinchalik ushbu kolxozlar ham kam rentabelli xo‘jaliklar hisoblanib, Dalvarzin, Oybek va Avangard kolxoz hamda sovxozlariga qo‘shib yuborildi. Vaqt o‘tib, “Qalovini topsang, qor yonadi”, deganlaridek, aholi chorvachilikni rivojlantirdi. Poliz va sabzavot mahsulotlari, xususan, yer-yong‘oq hamda kartoshka yetishtirib, yaxshi daromad ola boshladilar.

Ikkinchi jahon urushi Saryuzliklarga ham og‘ir kulfatlar olib keldi. Vatanni himoya qilish uchun 150 nafardan ortiq saryuzlik urushga ketdi. Shulardan 45 nafardan ortiq yigit janglarda halok bo‘lib, qishlog‘iga qaytmadi. Qishloqdoshimiz Qodir polvon Kursk-Oryol janglarida o‘ng oyog‘idan ayrilgan bo‘lsa, Usmonov Qodir o‘ng qo‘lidan ayrilib, uyiga qaytdi. Qishloqdoshlarimizdan Xolbekov Rahmat, Saibnazarov Bekmirza, Sariqulov Qo‘shnazar, Soatov Tog‘ay, Bo‘riqulov Qurdosh janglarda qahramonlik ko‘rsatib, orden va medallar bilan taqdirlanib, janglardan qaytdilar.

Saryuz qishlog‘ini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shgan aziz va mo‘tabar insonlar ko‘p. Abdukarimov Xo‘jan qishloqda 12 yil kolxoz raisi bo‘lib ishlagan bo‘lsa, Xatamov Beknazar 6 yil, Erkayev Jonibek esa 5 yildan ortiq kolxoz raisi lavozimida faoliyat yuritdilar. Yoshlarga o‘rnak bo‘lib, uzoq yillar turli sohalarda mehnat qilgan Qodirov Abduvali, Ahmedov Qo‘chqor, Qo‘shmonov Shodmon va Jumaboyev Tojiboylarning ham qishloq taraqqiyotidagi hissasi katta. Ular uzoq yillar davomida tumanimizdagi kolxoz va sovxozlarda rahbarlik lavozimlarida ishladilar.

Bekobod tumanidagi Saryuz qishlog‘ini “olimlar qishlog‘i” desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda qishlog‘imizdan yetishib chiqqan ko‘plab olimlar ilm-fanning turli yo‘nalishlarida faoliyat yuritmoqda. Saimnazarov Yo‘ldosh 2007–2010-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori lavozimida ishladi. Shuningdek, 20 yil davomida Toshkent davlat agrar universitetida prorektor lavozimida faoliyat yuritdi. Keyinchalik uzoq yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Shreder nomidagi bog‘dorchilik va uzumchilik institutida bosh direktor lavozimida ishladi. Olim 150 dan ortiq ilmiy ish va maqolalar, monografiya hamda darslik-lar muallifidir. Bobomurodov Xo‘jaahmad esa Butunittifoq paxtachilik seleksiyasi va urug‘chiligi institutida aspiranturada o‘qib, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Shu institutda ilmiy xodim, keyinchalik esa Bekobod tumanidagi Navbahor va Avangard kolxozlarida 12 yildan ortiq rais lavozimida ishladi. Bir necha kitob va maqolalar muallifi.

Ashirqulov Abduhakim va Egamberdiyev Abduzokirlar Toshkentdagi ilmiy-tadqiqot institutida aspiranturada o‘qib, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ldilar. Ular ilmiy xodim, Qishloq xo‘jaligi vazirligida bosh mutaxassis va qishloq xo‘jaligining boshqa sohalarida faoliyat yuritdilar. Saimnazarova Charos esa mikrobiologiya va virusologiya bo‘yicha biologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Keyinchalik biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olib, hozirda Toshkent tibbiyot texnikumida yoshlarga ilm bermoqda.

Qishlog‘imizning yosh olimlaridan Abdurasulov Shohrux san’atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega. O‘zbekiston Respublikasida teatr va san’atshunoslik sohasini rivojlantirish yo‘nalishida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida katta ilmiy xodim, kafedra dotsenti bo‘lib ishlamoqda. Saimnazarova Dilnoza esa Toshkent davlat agrar universitetining tillar kafedrasida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent lavozimida ishlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Saryuz — ko‘p asrlik tarix, boy an’ana va mehnatsevar xalqning hayot yo‘li mujassam bo‘lgan qadrli maskandir. Uning fidoyi farzandlari bugun ham yurt ravnaqi, ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Xo‘jaahmad BOBOMURODOV,
Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi

USTOZNI ESLAB

ABDUVALI QODIROV YUZ YOSHDA



Inson umrining qadri uning necha yil yashagani bilan emas, balki shu yillar davomida el-yurt uchun qilgan ezgu ishlari va kelajak avlodga qoldirgan ibrati bilan o‘lchanadi. Shunday insonlar borki, ularning hayot yo‘li bir oila yoki bir qishloq doirasidagina emas, balki butun bir avlod uchun ibrat maktabiga aylanadi. Bekobod tumani Saryuz qishlog‘ida tug‘ilib, umrini xalq xizmatiga bag‘ishlagan Abduvali Qodirov ham ana shunday fidoyi insonlardan biri edi.

Abduvali Qodirov 1926-yil 10-oktyabrda tug‘ilgan. Otasi Abduqodir Qurbonov, onasi Nusrat Erjigit qizi bo‘lgan. U 1933-yilda maktabga borib, 1941-yil iyun oyida 7-sinfni tamomlaydi.

Yosh Abduvalining mehnat faoliyati ham aynan shu davrda boshlanadi. 1941-yil iyun oyida “Oxunboboyev” nomli kolxozda ot-kultivator haydovchisi vazifasida ish boshlaydi. Bir oy o‘tib tabelchi, keyinchalik buxgalter yordamchisi bo‘lib faoliyat yuritadi. 1942-yildan kolxozning bosh buxgalteri vazifasida ishlaydi. 1944-yildan esa bir vaqtning o‘zida ham kolxozda bosh buxgalter, ham maktabda o‘qituvchi sifatida mehnat qiladi.

Bu yillar Abduvali Qodirovning hayot yo‘lini belgilab bergan, unda mehnatsevarlik, mas’uliyat va elga xizmat qilish kabi fazilatlarni shakllantirgan davr bo‘ldi.

1947-yildan u 16-maktab direktori vazifasida ishlaydi. Shu bilan birga Leninobod pedagogika bilim yurtida sirtqi ta’lim oladi. O‘qish va mehnatni birdek olib borgan Abduvali Qodirov 1948-yildan rayon ijroiya qo‘mitasida mas’ul kotib sifatida ish boshlaydi. 1949-yilda esa rayon komsomol komitetining birinchi kotibi lavozimiga saylanadi.

1952-yildan rayon partiya komitetining tashkiliy bo‘limi boshlig‘i sifatida faoliyat yuritadi. 1954–1958-yillarda Toshkent Oliy partiya maktabida tahsil olib, bilim va tajribasini yanada boyitadi. 1958–1959-yillarda Bekobod rayon partiya komiteti sekretari, 1959–1964-yillarda esa Lenin nomli kolxoz raisi vazifalarida ishlaydi.

Abduvali Qodirov uchun lavozim hech qachon maqsad emas, balki xalqqa xizmat qilish vositasi bo‘lgan. Shu bois u doim o‘z ustida ishlashni, bilim va tajribasini oshirishni davom ettirgan. 1964–1965-yillarda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti bo‘yicha aspiranturada tahsil olgan.

Keyingi yillarda ham uning mehnat faoliyati turli mas’uliyatli lavozimlarda davom etdi. 1965–1970-yillarda Bekobod rayon “Kommunist” gazetasida muharrir vazifasida ishladi. 1970–1974-yillarda suv qurilishi boshqarmasida boshliq o‘rinbosari, 1974–1979-yillarda kolxozlararo qurilish boshqarmasi boshlig‘i bo‘lib faoliyat yuritdi. 1979–1986-yillarda esa qishloq xo‘jalik xodimlari kasaba uyushmasi Bekobod rayon qo‘mitasi raisi vazifasida mehnat qildi.

1987-yilda pensiyaga chiqqan bo‘lsada, Abduvali Qodirovning el-yurtga xizmati shu bilan to‘xtab qolmadi. 1992-yilda Tuman faxriylar kengashi tavsiyasiga ko‘ra “Faxriy” qishloq xo‘jalik shirkatini tashkil etdi va umrining oxirigacha uning faoliyatida ishtirok etdi. Bu uning mehnatga, jamoaga va yurt taraqqiyotiga bo‘lgan sadoqatidan dalolat beradi.

Uning ko‘p yillik samarali mehnati munosib taqdirlangan. Abduvali Qodirov bir qator medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan. Unga “O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi” ko‘krak nishoni ham berilgan.

Biroq Abduvali Qodirov uchun hayotdagi eng katta boylik — uning farzandlari edi. U Oliyaxon Abdulaziz qizi bilan birgalikda to‘qqiz nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Ularning barchasiga ta’lim-tarbiya berishga alohida e’tibor qaratdi: sakkiz nafar farzandi oliy, bir nafari o‘rta maxsus ma’lumotli bo‘lib yetishdi.

Farzandlari ota kasbiga, uning hayot yo‘liga munosib ravishda turli sohalarda mehnat qildilar. Ular orasida jurnalist, shifokor, to‘rt nafar o‘qituvchi, ikki nafar muhandis va madaniyat xodimi bor. Demak, Abduvali Qodirovning eng katta meroslaridan biri — xalqqa xizmat qiladigan, bilimli va kasbini sevgan farzandlaridir. Uning hayot yo‘liga nazar tashlasak, bir haqiqatni anglaymiz: insonning nomi uning lavozimi bilan emas, el uchun qilgan xizmati va farzandlariga qoldirgan tarbiyasi bilan barhayot bo‘ladi.

Saryuz qishlog‘ida tug‘ilib, mehnat faoliyatini oddiy vazifadan boshlagan Abduvali Qodirov turli mas’uliyatli lavozimlarda ishlab, o‘zining butun umrini xalq xizmatiga bag‘ishladi. Uning hayoti — mehnatsevarlik, izlanish, mas’uliyat va elga sadoqatning yorqin namunasidir. Bunday insonlarning hayot yo‘li avlodlar uchun ibrat, nomi esa xalq xotirasida hamisha e’zoz bilan saqlanadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA



Vatan, senga ko‘p she’rlar bitdim,
Hech biridan ko‘nglim to‘lmadi.
Behisht dedim, ko‘p ta’rif aytdim,
Ammo dilim ravshan bo‘lmadi.
Sen sajdagoh kabi muqaddas,
Seni sevmoq iymondan axir.
Dilga payvand har bir zarra xas,
Jonday aziz, nonday benazir,
Maqtamoqchi emasman seni,
Aytmoqchiman dilda borini.
Qalbga tugib oliy tuyg‘uni,
Yashirmayman iftixorimni.
Bir tuyg‘uki – istiqlol bergan,
Unda bobom armoni yashar,
Na ajdodlar bu kunni ko‘rgan,
Bunday kunni ko‘rmagan bashar.
Faraxbaxsh dam senga bag‘ishlab,
Ne yozishga o‘ylanib qoldim.
Ilhom otin jilovin ushlab,
So‘ng qo‘limga qalamim oldim.
Boshim egdim xat tegrasiga,
Qog‘oz uzra yugurdi xoma.
Vatan so‘zin ro‘parasiga
Bekobod deb bitildi noma.
Buyuk Vatan ichra bir vatan –
Bekobodga doston bitsam-chi?
Shu tuproqda ulg‘aygan bu tan,
Borlig‘imni bayon etsam-chi?
Quyosh nurin tomchida ko‘rib
Tasavvurlar zavq olarmidi?
Vatan mehri qonga yugurib,
Balki ko‘nglim ham to‘larmidi?
Xullas, ko‘ngil taskin olsin deb,
Ilhom ila ushladim xoma.
Yurtim ishqi bilan to‘lsin deb,
Nomin qo‘ydim – “Bekobodnoma”.

* * *

Shu o‘rinda lirik chekinish:
Ustoz ruhi meni kechirsin,
Sarlavham deb chekmayin tashvish,
Malik Egam go‘rda tinch tursin.
Bir xil rangli zarbof choponni
Turfa odam kiyishi mumkin.
Bir qalamni boshqa bir inson
Boshqacharoq yo‘nishi mumkin.
Shunga ko‘ra ustozdan farqli,
Nazm bog‘in afzalroq bildim.
Nazar tashlab moziy qa’riga,
Bugun bilan hamohang qildim.
Ko‘ngil yig‘lar ustozni yodlab,
Oq qog‘ozga yoshlarim toma.
Tursin deyman ruhlari qo‘llab,
Yozilguncha “Bekobodnoma”...

“BEKOBOD”MI, “BEK AVLOD”?

Yillar osha bu maskanga,
Inson zoti qo‘ydi qadam.
Qadim Sayhun sohillarin
Makon etdi bani odam.
Joylashdilar elat-urug‘
Qayda bo‘lsa yaylov-o‘tloq.
Paydo bo‘ldi kapa, o‘tov,
Har-har joyda ovul, qishloq.
Xalq, asosan, kelar edi
O‘ratepa-Zominlardan.
Kelar edi G‘o‘lakandoz
Hamda Toshkent tomonlardan.
O‘ng sohildan o‘rin oldi
Kal-Kerayit, Taqachi, Xos,
Parchayuz-u O‘yuvlilik,
Saryuz hamda Chanoq, Uyas...
Chap sohilni egalladi
Achamayli, Qiyot, Nayman,
Shova, Beshkal ham Qo‘qoni,
Qo‘shtamg‘ali ila Turkman...

* * *

O‘ratepa begi keldi
Ko‘rgani sohil bo‘yin.
Ko‘rsa, tuproq serunum-u
Suv chiqarish juda qiyin.
Lek yuqori tomonlarda
Buloq serob ekan juda.
Qo‘shtegirmon suvlari
Oqar ekan behuda.
“Shu suvlarni ariq qazib,
Olib kelsa bo‘larmikan?
Ammo qishloq boylari
Bu taklifga ko‘narmikan?”
Shu hayolda tadbirkor bek
Qo‘shtegirmon sari yurdi.
Rejasini bayon aylab,
Uzoq bahs-u suhbat qurdi.
Ko‘p tortishuv suhbatdan so‘ng
Boylar shartga rozi bo‘ldi.
Maslahatning pishganiga
Qon chiqarib – qo‘y so‘yildi.
Bek boshchi-yu hamjihat el
Dala tomon qazdi ariq.
Yaydoq yerga suv kelgan so‘ng
Nomin oldi “Buloqariq”.
Shu ariqdan suv ichgan yer
Asta gullab yashnadi.
Qirq a’yondan iborat el
Ko‘payisha boshladi.
Bora-bora o‘sha qishloq
Ko‘rkam va obod bo‘ldi.
Najotkor bek sharafiga
Bekobod deb nom oldi

* * *

Bu, albatta, bir talqin –
Xalq yaratgan hikoyat.
Ilmiy jihatdan olsak
Aniq bo‘ladi g‘oyat.
*Professor Suyun Qora**
Joylar otin yaxshi bilar.
“Bekobod”ning o‘zagini
“Bek avlod” deb talqin qilar.
Demak, qishloqqa dastlab
Bek avlodi ko‘chib kelgan.
Ular bunda yashab qolib,
Bekobodga asos solgan.
Haqli savol: “Nega ular
Shu yerni makon etgan?
Yaxshi yashash ilinjida
Bundan nimani kutgan?”
Avvalo zaminining
Tuproqlari hosildor.
Quruq, issiq havosi,
Atrof yaylov, to‘qayzor.
Yerosti-yu yerusti
Qazilmaga boy edi.
Dehqon-u chorvadorga
Juda ham qulay edi.
Ayniqsa, karvon yo‘li
Shu hududdan o‘tardi.
Mag‘ribdan chiqqan karvon
Mashriq tomon ketardi.
Iskandar ham bir vaqtlar
Shu hududdan o‘tgandi.
Spitamenga dosh bermay
Orqasiga qaytgandi.
Shoh va shoir Boburmirzo,
Quvilgach Andijondan,
O‘ratepaga borib,
So‘ng Toshkentga yuzlangan.
Bu fakt “Boburnoma”da
Aniq bayon qilingan.
Unda o‘lka shamoli
Ilk bor tilga olingan.
Chingiz degan bosqinchi ham
Bunda bo‘lgani ayon:
Dalvarzindan mo‘g‘ullarning
Yoy o‘qlari topilgan.
Xullas, o‘lkam tuprog‘iga
Qadam qo‘ydi yaxshi-yomon.
Ming bir sinovlardan o‘tib,
Aziz elim qoldi omon...

_____

** Suyun Qorayev – atamashunos olim.*

TUMANNING TUG‘ILISHI

yoki cho‘lga hujum

Sentyabrning oxiri
Yigirma oltinchi yil.
Markaz Bekobod bo‘lgan
Tuman etildi tashkil.
Cho‘lni o‘zlashtirishga
Yo‘llar ochildi ravon.
Ko‘ngillilar kelaverdi
Ko‘hna Dalvarzin tomon.
“Dalvarzincho‘lqurilish”
Degan trest bosh bo‘ldi.
*Tatyana Kalpakova**
Unga rahbarlik qildi.
Dastlab tuman markazidan
Tor temir yo‘l solindi.
Dalvarzinga qatnovchi
Motovozlar olindi.
Suv keltirish loyihasi
Puxta ishlangan edi.
Tayyorgarlik jarayoni
Oldin boshlangan edi.
Shuning uchun kanal qurish
Darhol jadal tus oldi.
Umumxalq qurilishga
Turli millat, el keldi.
Kimdir tuproq qazirdi,
Kim tashirdi tepaga.
Dam olish-chun ayol-erkak
Joylashardi kapaga.
Kecha-kunduz – uch smena
Qazuv ishi borardi.
Menimcha, ular ishin
Ahillik boshqarardi.
Shu orada Kalpakova
“Byus-ayres” keltirdi.
Texnika qudratidan
Ishlarga unum kirdi.
Chap irmog‘-u o‘ng irmoq
Cho‘lga tomon yo‘l oldi.
U Dalvarzin atalib,
Do‘stlik ramzi bo‘p qoldi.
O‘ttizinchi yil boshida
Kanalga suv tashlandi.
Asrlar osha qaqroq
Cho‘lga hujum boshlandi.

_____

** “Dalvarzin” kanali loyihasini yaratgan birinchi irrigator ayol*

* * *

Yaydoq qir-u adirlarga
Suv keldi – hayot keldi.
Yerlarni o‘zlashtirib,
Ekin ekish kerak endi.
Shu maqsadda vodiydan
Mirishkorlar kelishdi.
Unumdor yer, suvni ko‘rib,
O‘troq bo‘lib qolishdi.
Bekobodda palak yozdi
Besharig‘-u qo‘qonlik,
Uchqo‘rg‘on-u Namangan
Hamda O‘sh, andijonlik.
Kengaydi ekinzorlar,
Paxta, g‘alla maydonlari.
Hosil bilan dovrug‘ soldi
Bekobod dehqonlari.
Ammo Sirning bo‘ylarida
Mavjud edi zaxkash yerlar.
Bu yerlarga sholi eksang
Juda yaxshi hosil berar.
Buni anglab Rus og‘amiz
Uzoq Sharqqa yo‘l oldi.
U yoqdagi koreyslardan
Ko‘chirib olib keldi.

* * *

Hamjihat el ahillikda
Belin bog‘lab ishlardi.
Topganiga shukur qilib,
Osoyishta yashardi.
Biroz qiyin bo‘lsa hamki
O‘tib borardi turmush.
Ammo yurtga xabar keldi:
Boshlandi mash’um urush...

XOTIMA O‘RNIDA

Ma’zur tuting meni, o‘quvchim,
Mavzudan sal chetlagan bo‘lsam.
Shu Vatanga sadoqat burchim,
U qalbimda yig‘lasam-kulsam.
Shu tufayli Vatandan ayro
Ko‘rmayman men Bekobodimni.
Bamisoli Najmiddin Kubro
Sevarman men qo‘shqanotimni.
Ushbu ikki qanot tufayli
Kelajakka parvoz etarman.
Aylanmoqda zamona zayli,
Istiqbolni shodon kutarman.
Shu tufayli qo‘limda qalam,
Yurt haqida doston bitarman.
Tariximni agar bilmasam,
Kelajak ham bo‘lmas, bilarman.
Xatolardan emas u holi,
Kechirgaysiz sahv o‘lsa agar.
Adashgan bir g‘avvos misoli,
Ummonlardan izladim gavhar.
Topdimmi va yo topolmadim,
Siz o‘zingiz bo‘ldingiz guvoh.
Dilda aslo g‘ubor qolmasdi
Gar zarracha olsangiz saboq.
Balki shunda ado etilar
Shoirlik va farzandlik burchim.
Lek bu bilan qarzim uzilmas,
Jonim garov shu Vatan uchun.
Kindik qonim tushgan zaminga
Yurak qonim sadag‘a bo‘lsin.
Ko‘z tegmasin shunday zamonga,
Olam sahni quvonchga to‘lsin.
Ushbu shavqdan topib dil huzur,
Dostonimni tugatdim.Tamom.
Vatan madhi esa bir umr
She’rlarimda etadi davom.

1-OKTYABR — O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI!



Har yili kuz faslining ilk kunlarida tabiat rang-barang tusga kirib, yangi o‘quv yili o‘z shiddatini olayotgan bir paytda xalqimiz yana bir muqaddas sanani — O‘qituvchi va murabbiylar kunini nishonlaydi. Bu kunni shunchaki taqvimdagi bir sana deyolmaymiz, bu kun millatning o‘z kelajagiga, farzandlariga ta’lim va tarbiya berayotgan insonlarga bo‘lgan cheksiz ehtiromi va minnatdorligining ifodasidir.

O‘qituvchilik — oddiy kasb emas, balki yuksak mas’uliyat va fidoyilikni talab qiladigan sharafli missiyadir. Shifokor insonga jismoniy shifo bersa, ustoz qalblarga ilm va ma’rifat nurini baxsh etadi. Farzandlarimiz maktab bo‘sag‘asidan olis va mashaqqatli yo‘l sari qadam qo‘yar ekan, ularning hayotida doimo ustozning mehri, aql-zakovati va tinimsiz mehnati mujassam bo‘ladi.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk allomalarimiz — Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi ulug‘ zotlarning ilm cho‘qqilarini zabt etishida ustozlarining o‘rni beqiyos bo‘lganini ko‘ramiz. “Ustoz — otangdek ulug‘” degan naql bejiz aytilmagan. Sharq falsafasida ustoz va shogird munosabatlari azaldan muqaddas sanalgan. Chunki bilim faqat kitobdan emas, balki uni o‘rgatuvchi insonning qalbi, tajribasi va hayotiy saboqlaridan ham o‘tadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktablar zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanmoqda, o‘qituvchilarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilmoqda, ularning malakasini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bular ta’lim-tarbiya sohasining strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani hamda kelajak avlodni bilimli, salohiyatli va yetuk mutaxassislar etib tarbiyalashga qaratilgan izchil sa’y-harakatlarning amaliy ifodasidir.

Biroq har qanday islohot va zamonaviy texnologiya o‘qituvchining insoniy mehri, sabr-toqati va fidoyiligi o‘rnini bosa olmaydi. Tunlari o‘quvchilarning daftarlarini tekshiradigan, ertalab birinchi bo‘lib sinfga kirib, bolalarning kayfiyatini his qiladigan, har bir o‘quvchiga individual yondashuv topa oladigan ustoz — millatning haqiqiy boyligidir.

Murabbiy tushunchasi ham bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Sport murabbiylari, hunar ustalari, ma’naviyat targ‘ibotchilari — bularning barchasi yosh avlodni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ular yoshlarga nafaqat bilim va ko‘nikma, balki matonat, iroda, mas’uliyat, jamoada ishlash va qiyinchiliklarni yengib o‘tish kabi hayotiy fazilatlarni ham singdiradilar.

Ushbu ayyomda barcha ustoz va murabbiylarimizga cheksiz minnatdorchiligimizni bildirib, ularga mustahkam sog‘lik, oilaviy baxt, xotirjamlik va ijodiy faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz. Har bir shogirdning yutug‘ida sizning zahmatingiz, har bir ochilgan iqtidorda sizning mehringiz va mehnatingiz bor. Shu bois, bugun har birimiz o‘z ustozimizni yodga olib, ularga ezgu tilaklarimizni yetkazishimiz — insoniy burchimizdir.

Kelajak — bugungi ta’lim va tarbiya orqali yaratiladi. Bu buyuk kelajakni bunyod etayotgan fidoyi insonlar esa, avvalo, ustozlardir. Zero, yosh avlodning qalbiga ilm, ma’rifat va ezgulik urug‘ini qadab, uni kamol toptirayotgan insonlarga hurmat va ehtiromimiz hamisha yuksak bo‘lishi kerak.

Aziz ustozlar, sizlarga chin dildan ta’zim qilamiz!

Dilnavoz NORMURODOVA,
Bekobod tumani 33-umumta’lim maktabining
11-sinf o‘quvchisi



Ustoz misoli yonib turgan shamga qiyos. O‘zi yonib, atrofga nur-u ziyo sochadi. Boshqalar esa ana shu nurdan bahramand bo‘ladi. Shu sababli har bir inson, yoshidan, mavqeyidan, darajasidan qat’i nazar, saboq bergan ustoz-murabbiyi oldida mudom ta’zimda. Hazrat Navoiy aytganlaridek, Haq yo‘lida bizga ming ranj-u mashaqqat bilan saboq bergan muallimlarning zahmatini hech qanday boylik bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Ularning mehnati beqiyos va benazirdir. O‘zgalarga ilm o‘rgatish, ma’rifat ziyosini tarqatish kabi mas’uliyatli vazifani zimmasiga olgan insonlarning maqomi ham yuksakdir.

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub quyidagi misralardan ham ustozlik nechog‘lik yuksak maqom ekanini anglashimiz mumkin:

Shoirga dedilar: “Siz baxtli inson,
Xalqingiz ardoqlar, hamma taniydi”.
Shoir javob berdi: “Menda bir armon —
Muallim desalar meni qaniydi”.

Talabalik yillarimga yakun yasar ekanman, menga bildirilgan ishonchni oqlash, ustozlarim bergan bilim va tarbiyaga munosib bo‘lish — zimmamdagi eng muhim vazifalardan biridir. Bugun men Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Prokurorlik faoliyati yo‘nalishi ilk bitiruvchisi sifatida yangi hayot ostonasida turibman. Ertaga qaysi lavozimda xizmat qilishimdan qat’i nazar, bu yo‘lning boshlanishida menga bilim bergan, kasbiy mas’uliyatimni shakllantirgan ustozlarim — Abdulatif Ahmedov, Mansurbek Usmonov, Avazbek Komilovlarning mehnati borligini aslo unutmayman.

Endilikda oldimda yanada mas’uliyatli bosqich — egallagan bilimlarimni amaliy faoliyatda namoyon etish, qonun ustuvorligini ta’minlash va xalqimizga munosib xizmat qilish vazifasi turibdi.

Prokurorlik — bu xalq dardi bilan yashash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qonun buzilishlarga qarshi murosasiz kurashish demakdir. Men tanlagan yo‘l mashaqqatli, lekin sharafli. Bu yo‘lda har bir qadamim ustozlarim ko‘rsatgan yo‘lga mos bo‘lishi kerak.

Kelajakda qanday lavozimda, qaysi hududda xizmat qilmayin, o‘zimga qo‘ygan talabim o‘zgarmaydi: qonun oldida barcha teng, har bir qaror esa qonuniylik, xolislik va adolat mezonlariga asoslangan bo‘lishi kerak. Men uchun adolat — har bir ishda, har bir qarorda, har bir fuqaroning taqdiriga daxldor masalada namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan yuksak mezondir.

Agar bir kun kelib menga ustozlik nasib etsa, shogirdlarimga faqat bilim emas, avvalo, odob, mas’uliyat va Vatanga sadoqatni o‘rgatishni istayman. Chunki ustozlarim menga aynan shu qadriyatlarni meros qoldirdilar. Ularning mehnati, saboqlari va ezgu niyatlari hamisha men bilan.

Men ustozlarim bildirgan ishonchni oqlashni, kelajakda egallaydigan prokurorlik lavozimiga dog‘ tushirmaslikni, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga sodiq qolishni hamda xalqimizga munosib xizmat qilishni hayotimning eng muhim burchlaridan biri deb bilaman.

Shu ezgu tilaklar bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Prokurorlik faoliyati va prokuror nazorati kafedrasi professor-o‘qituvchilarini, shuningdek, barcha ustoz va murabbiylarimni 1-oktyabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan samimiy muborakbod etaman. Sizlarga sharafli va mas’uliyatli faoliyatingizda mustahkam sog‘lik, ilmiy-pedagogik faoliyatingizda yangi yutuqlar hamda shogirdlaringiz kamolidan bahramand bo‘lish baxtini tilayman.

Yulduzxon BAXRONOVA,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Prokurorlik faoliyati yo‘nalishi
4-bosqich talabasi



USTOZ

Bugungi kun senga atalgan,
Murabbiy-u muallim, ustoz.
Kasbi bois ko‘p ulug‘langan,
El ichida topolgan e’zoz.

Bugun bayram, bugun tantana,
Shogirdlaring qutlar birma-bir.
Ustoz ko‘rmay kim o‘rnin topgan,
Ko‘hna dunyo guvohdir, axir...

Bir kungina unut maktabni,
Bolalarning shovqinin unut.
Bir kungina ushlama bo‘rni,
Yaqinlaring, do‘stlaringni kut.

Daftarlarni tekshirma, mayli
Ortga surgin faqat bir kunga.
Erta ishga borasan hali,
Kunlaringni ulaysan tunga..

Bayram qutlug‘ aziz, ustozlar!
Sizlargadir bugungi alyor.
Qalb qo‘ringiz, kasbga mehringiz,
Ko‘ngillarga bo‘lsin doim yor...

Abduvoyit SHERMANOV

E’lon

“ZOKIRJON SHOKIRJON OTA” fermer xo‘jaligining yumaloq muhri yo‘qolganligi sababli haqiqiy emas deb topilsin.

KELAJAK NIHOLLARI

MEHR VA TARBIYA MASKANI

Bekobod tumani Do‘stlik mahallasi hududida joylashgan “Nihol” oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida ushbu maskanga tashrif buyurdik. Bu yerda hukm surayotgan samimiylik va bolajonlarga bo‘lgan mehr-e’tibor bizda iliq taassurot qoldirdi.

2019-yilda Muqaddas Rasulova tomonidan tashkil etilgan “Nihol” bugun bolajonlar uchun shunchaki ta’lim-tarbiya maskani emas, balki ular o‘zlarini erkin, xotirjam va baxtli his qiladigan go‘zal muhitga aylangan.

Bog‘chaga kirar ekansiz, avvalo, bolalarning beg‘ubor kulgisi, tarbiyachilarning samimiy munosabati va kichik qalblarga berilayotgan mehr-e’tiborni his qilasiz. Bu yerda har bir bolaning o‘ziga xosligi, qiziqishi va kayfiyatiga alohida e’tibor qaratilayotgani seziladi.

Katta guruh tarbiyachisi Olimova Kamola hamda kichik guruh tarbiyachisi Otajonova Intizor bolajonlar bilan mehr hamda sabr bilan ishlamoqda. Mashg‘ulotlar, turli o‘yinlar va ijodiy jarayonlar orqali tarbiyalanuvchilarning bilimga qiziqishi, fikrlashi, dunyoqarashi va muloqot qobiliyatlari rivojlantirilmoqda. Ayniqsa, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilayotgani quvonarli.

Tashrifimiz davomida bizni o‘ylantirib qo‘ygan, shu bilan birga, qalbimizga iliqlik baxsh etgan juda samimiy bir holatga guvoh bo‘ldik. Kun yakuniga yetib, bolalar



ota-onalari bag‘riga qaytayotgan paytda, bir jajji bolakay Muqaddasxon bilan qolishni istab, uyiga ketishga ko‘nmayotgan ekan. U ota-onasi bilan ketmaslik uchun xarxasha qilib, bog‘chada qolishni istardi.

Oddiygina ko‘ringan bu holat aslida juda katta ma’noni anglatadi. Axir, bola mehr, e’tibor va o‘zini xotirjam his qilgan joydan ketishni istamaydi. Jajji bolakayning beg‘ubor qalbidan chiqqan bu istak Muqaddasxonning bolajonlarga berayotgan mehr-muhabbati va “Nihol”dagi iliq muhitning kichik, ammo ta’sirchan ifodasidek tuyuldi.

Biz, kattalar, ba’zan biror maskan haqida uning binosi, jihozlari yoki tashqi ko‘rinishiga qarab xulosa qilamiz. Bolalar esa boshqacha — ular mehrni his qiladi. Shu ma’noda, jajji bolakayning bog‘chadan ketishga ko‘nmagani “Nihol”ga berilgan eng samimiy baholardan biri bo‘ldi.

Muqaddas Rasulova bilan suhbatimiz davomida uning bolalar tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashishi, har bir tarbiyalanuvchiga mehr bilan munosabatda bo‘lishga intilishi yaqqol sezildi. Ehtimol, shu bois ham bu maskanda bolalar o‘zlarini begona emas, o‘z uyidagidek erkin va xotirjam his qilayotgandir.

Bugun “Nihol”da tarbiyalanayotgan har bir bola — kelajakning kichik niholi. Ularning qalbiga bugun qanday mehr, tarbiya va ezgulik urug‘i qadalsa, ertaga shunday go‘zal meva beradi. “Nihol” nomi ham bejiz tanlanmagandek. Niholga suv, quyosh va parvarish qanchalik zarur bo‘lsa, bolaga ham mehr, e’tibor, yaxshi tarbiya va samimiy munosabat shunchalik kerak.

Biz bu maskandan shunday taassurot bilan qaytdikki, “Nihol”da bolalar shunchaki vaqt o‘tkazmayapti. Ular mehr tuymoqda, bilim olmoqda, do‘stlashmoqda va katta hayot sari ilk qadamlarini tashlamoqda. Zero, har bir katta daraxt bir vaqtlar kichik nihol bo‘lgan.

Bashorat YO‘LDOSHEVA,
Mehnat faxriysi

QALBLARDA MANGU YASHAYDIGAN SHARAF

Ustoz — inson hayotida o‘chmas iz qoldiradigan, unga ilm va tarbiya berib, kelajak sari yo‘l ko‘rsatadigan ulug‘ siymo. Ayniqsa, butun umrini ta’lim-tarbiya sohasiga, yosh avlod kamoliga bag‘ishlagan fidoyi insonlarning mehnati va xizmatlari hamisha e’zozga loyiq.

6-sonli umumta’lim maktabida uzoq yillar davomida ta’lim sohasida samarali faoliyat olib borgan Anvar Babayev ana shunday fidoyi rahbar va mohir pedagoglardan biridir. U butun umrini maktab, ta’lim-tarbiya va kelajak avlodni voyaga yetkazishdek sharafli va mas’uliyatli vazifaga bag‘ishladi.

Anvar Babayev keng dunyoqarashi, yuksak ma’naviyati, ziyoliligi, madaniyati, talabchanligi va o‘z kasbiga bo‘lgan fidoyiligi bilan jamoa orasida hurmat qozongan rahbar sifatida tanilgan. U o‘z sohasini chuqur biladigan, mas’uliyatni teran his qiladigan, har bir ishga talabchanlik va mas’uliyat bilan yondashadigan mohir mutaxassis edi.

Ustozning xizmatlari faqat o‘quvchilarga bilim berish bilangina cheklanib qolmadi. U ko‘plab yosh pedagoglarning yetuk mutaxassis, fidoyi ustoz sifatida shakllanishiga o‘zining boy tajribasi, maslahatlari va ibrati bilan munosib hissa qo‘shdi. Shu jihatdan Anvar Babayev nafaqat rahbar, balki ko‘plab yosh ustozlar uchun namunali murabbiy ham bo‘ldi.

Maktabda yillar davomida samarali mehnat qilgan har bir ustozning o‘ziga xos o‘rni va xotirasi bor. Jumladan, R.Hasanova, T.Abbosova, Sh.Karimova, M.Xolmatova, G‘.Babayeva, O.Parpixo‘jayeva va boshqa barcha zahmatkash ustozlarning ta’lim-tarbiya yo‘lidagi xizmatlari tahsinga loyiq.

Ularning har biri o‘z mehnati, bilimi va hayotiy tajribasi bilan nene avlodlarga saboq berdi, yoshlarning kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yishiga ko‘maklashdi. Ustozlarning qalbga singdirgan bilimi, bergan tarbiyasi va hayotiy saboqlari shogirdlari xotirasida mangu yashaydi.

Shu fursatdan foydalanib, Anvar Babayevni hamda 6-sonli umumta’lim maktabida faoliyat olib borayotgan barcha aziz ustozlarni kirib kelayotgan 1-oktyabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Muhtaram ustozlar! Sizlarga mashaqqatli va sharafli kasbingizda mustahkam sog‘lik, uzoq umr, metin iroda, kuch-g‘ayrat, oilaviy xotirjamlik va fayz-u baraka tilayman. Shogirdlaringizning yutuqlari, xalq va jamiyat e’tirofi hamisha sizlarga quvonch bag‘ishlasin.

Zero, ustozning mehnati — kelajak bunyodkorligiga qo‘shilgan bebaho hissadir. Siz bergan ta’lim va tarbiya, qoldirgan ezgu izingiz hamisha avlodlar qalbida yashaydi.

Ustozga hurmat — kelajakka hurmatdir!

Ilm va ma’rifat



TARIX SABOQLARI MUZEY EKSPOZITSIYALARIDA

Tarixni o‘rganishda kitob va darsliklar bilan bir qatorda, bevosita tarixiy manbalarni ko‘rish va o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Muzeylar esa o‘tmish haqida tasavvurni boyitadigan, tarixiy jarayonlarni moddiy manbalar orqali anglash imkonini beradigan muhim maskanlardan biridir.

Shu maqsadda Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti 1-kurs talabalari tyutorlar G‘ofurjon To‘libov va Samandar Salimov boshchiligida O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida talabalar O‘zbekiston hududida qadimgi davrlardan boshlab shakllangan tarixiy-madaniy jarayonlarga oid ko‘plab eksponatlar bilan yaqindan tanishdilar. Ayniqsa, Teshiktosh g‘oridan topilgan neandertal bola qoldiqlari, bronza davriga oid Zamonbobo, Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari bilan bog‘liq arxeologik materiallar talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Muzey ekspozitsiyalaridagi qadimiy mehnat qurollari, kulolchilik buyumlari, metall ashyolar va turli bezaklar orqali o‘sha davr aholisi turmushi, xo‘jaligi va hunarmandchiligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Ayniqsa, qadimgi kulolchilik buyumlari va ishlab chiqarish qurollari o‘tmishdagi texnologik jarayonlar haqida muhim ma’lumot beradi.

Tashrif davomida Surxondaryo vohasidagi arxeologik yodgorliklarga ham alohida e’tibor qaratildi. Tyutor Samandar Salimov mazkur hududdagi yodgorliklarning o‘rganilish tarixi va ilmiy ahamiyati haqida qo‘shimcha ma’lumot berdi. Talabalar bilan tashkil etilgan savol-javob jarayonida arxeologik manbalarning tarixni o‘rganishdagi o‘rni yuzasidan fikr almashildi.

Muzey bo‘ylab sayohat talabalar uchun oddiy ekskursiyadan ko‘ra, o‘ziga xos amaliy mashg‘ulot vazifasini o‘tadi. Darsliklarda o‘rganilgan tarixiy ma’lumotlarni asl moddiy manbalar bilan bog‘lash, qadimiy buyumlarni bevosita kuzatish va ular haqida fikr yuritish yoshlarning tarixiy tafakkurini yanada boyitdi.

Zero, tarixni anglash — faqat sanalar va voqealarni yod olish emas. Uni moddiy manbalar, qadimiy yodgorliklar va ajdodlardan qolgan bebaho meros orqali his etish ham muhimdir. Shu jihatdan, muzeyga uyushtirilgan ushbu sayohat talabalar uchun mazmunli va foydali tajriba bo‘ldi.

Qutlov

USTOZLAR

El-u yurtda e’zoz topib, bilim bergan ustozlar,
Qalbi iymon, ko‘ngli toza, mehri daryo ustozlar.
Har sohada ibrat bo‘lib, ilm berib yoshlarga,
Nurga to‘ling, iqbol toping ikki jahon, ustozlar!

Ozlik qilar qancha ta’zim, qilsak sizga ehtirom,
Sizlar bilan dunyo tirik, asli hayot bardavom.
Izingizdan yurar har dam kelajak avlod mudom,
Muruvvatda namunasiz, dil nurafshon ustozlar!

Hurmat bilan,
Halima IMOMOVA va uning farzandlari

Bag‘ishlov

MUALLIM

Charchasa charchoqni sindirib,
Olamni nurlarga to‘ldirib,
Kuyunsang qo‘yadi kuldirib,
Dunyoda yashaydi muallim.

Tergaydi gohida otangday,
Holingni tushunar onangday,
Yo‘lingda turadi mayoqday,
Duoda yashaydi muallim.

So‘zidan arimas hikmati,
Robbimning yerdagi ne’mati,
Ilmli qilmoqdir niyati,
Savobda yashaydi muallim.

She’rlarim tugamas adog‘i,
Mehrdan yaralib gulbog‘i,
Turishni o‘rgatib sabog‘i,
Hayotda yashaydi muallim

Jasmina ISMOILJONOVA,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Sharq mamlakatlari tarixi fakulteti 1-bosqich talabasi

PEDAGOGIK MAHORAT VA IJOD

TASVIRIY SAN’AT — BOLANING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUVCHI KUCH

Har bir inson hayotida o‘ziga yaqin, qalbiga zavq bag‘ishlaydigan mashg‘ulot bo‘ladi. Men uchun ana shunday olam — tasviriy san’at. Rasm chizish shunchaki qog‘ozga rang va chiziqlar tushirish emas, balki o‘z fikrlarim, tasavvurlarim va go‘zallikka bo‘lgan munosabatimni ifodalash vositasidir.

Men tasviriy san’at fani o‘qituvchisi sifatida o‘quvchilarimning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qarataman. Har bir darsda bolalarning san’atga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishga, ularni erkin fikrlashga, o‘z tasavvurini tasvir orqali ifodalashiga o‘rgataman.

O‘zim ham tinimsiz ijod qilaman. Turli mavzularda rasmlar chizish, ranglar uyg‘unligini izlash, yangi obraz va kompozitsiyalar yaratish orqali o‘z ustimda ishlayman. O‘qituvchi ijod qilsa, uning o‘quvchiga beradigan ilhomi ham boshqacha bo‘ladi. Shu bois o‘z ijodiy ishlarimni dars jarayonida o‘quvchilar bilan baham ko‘rishga intilaman.

Maktabimizda tasviriy san’at darslari davomida o‘quvchilar turli mavzularda ijodiy ishlar yaratib kelmoqdalar. Ularning rang-barang rasmlari, o‘ziga xos kompozitsiyalari va ijodiy izlanishlari menga ham katta quvonch bag‘ishlaydi. Ba’zan o‘quvchining oddiygina bir rasmi ortida uning katta tasavvuri va o‘ziga xos dunyosi yashiringanini ko‘rish mumkin. Tasviriy san’at darslaridan asosiy maqsad ham faqat rasm chizishni o‘rgatish emas, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, tasavvuri va estetik didini rivojlantirishdan iboratdir.

Tasviriy san’at darslarini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishda o‘yin metodlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Turli didaktik va ijodiy o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni erkin fikrlashga va faol ishtirok etishga undash mumkin. Masalan, “Rangni top”, “Rasmni davom ettir”, “Sirli obraz”, “Kim chaqqon?” kabi o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning ranglarni farqlash, tasavvur qilish, kuzatish va tezkor fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Ayniqsa, o‘quvchiga ma’lum bir mavzu yoki obrazni o‘z tasavvuri asosida tasvirlash imkonini beruvchi ijodiy o‘yinlar ularda mustaqil fikrlash va yangicha yondashuvni shakllantiradi. Bunday mashg‘ulotlarda bola rasm chizishni vazifa sifatida emas, balki zavq bilan bajariladigan ijodiy jarayon sifatida qabul qiladi. Shu bois o‘yin metodlari tasviriy san’at darsida bilim, qiziqish va ijodkorlikni uyg‘unlashtirishning samarali vositalaridan biridir.



Dars jarayonida o‘quvchilarning bir-biridan ilhomlanib, o‘zaro fikr almashib ijod qilishi ham juda muhim. Mashg‘ulot yakunida bajarilgan ishlarni namoyish etish esa ularda o‘z mehnatidan faxrlanish, o‘ziga bo‘lgan ishonch va ijodiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Har bir bolaning qobiliyati har xil bo‘ladi. Kimdir ranglarni yaxshi his qiladi, kimdir chiziqlar bilan mahoratli ishlaydi, yana biri esa ajoyib tasavvurga ega bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining kichik yutug‘ini ham ko‘ra bilishi va uni qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Ba’zan oddiygina “Juda yaxshi fikr!”, “Buni o‘zing o‘ylab topdingmi?”, “Yana qanday qo‘shish mumkin?” kabi so‘zlar bolaning ijodga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Bugun rasm chizayotgan bola ertaga dizayner, me’mor, muhandis, rassom yoki boshqa kasb egasi bo‘lishi mumkin. Ammo bundan ham muhimi, u ijodiy fikrlaydigan, go‘zallikni qadrlaydigan, o‘z fikrini erkin ifodalay oladigan va yangilik yaratishga intiladigan inson bo‘lib ulg‘ayadi.

Quyida siz, aziz gazetxonlarga, o‘quvchilarimning bir nechta ijodiy ishlarini taqdim etmoqchiman. Ushbu rasmlarda ularning nafaqat tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishi, balki beg‘ubor qalbi, boy tasavvuri va o‘ziga xos dunyoqarashi ham aks etgan. Har bir ijodiy ish — kichik bir qadam, katta orzular sari tashlangan dadil intilishdir. Zero, bugungi kichik ijodkorlar — ertangi kunning katta orzulari va bunyodkor g‘oyalarini yaratuvchi avlodidir.


Maftuna SAYDINOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabi tasviriy san’at fani o‘qituvchisi



Jahongir TOSHBOYEV,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining 5-“B” sinf o‘quvchisi



Bibiniso ASHUROVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining 7-“A” sinf o‘quvchisi



Zahro ABDUAHADOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining 6-“A” sinf o‘quvchisi



Husnigul ABDUQAHHOROVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining 7-“A” sinf o‘quvchisi

TABIAT TUHFALARI

UYIMIZDAGI YASHIL MO‘JIZALAR

Uyimizdagi gullar xonadonimizga nafaqat chiroy baxsh etadi, balki kundalik hayotimizga tabiatning o‘ziga xos tarovatini olib kiradi. Ularning har biri alohida parvarish va e’tibor talab qiladi. Quyida xonadonlarda ko‘p uchraydigan to‘rtta xonaki gulni parvarishlashga oid foydali tavsiyalar bilan tanishamiz.

1 “Ayol baxti” ning asl qiyofasi



Spatifillum, xalqimiz orasida “Ayol baxti” deb ataladigan bu gul xonadonlarda ko‘p uchraydi. To‘q yashil, yaltiroq barglari va oppoq gullari xonaga o‘zgacha fayz bag‘ishlaydi. Eng muhimi, u unchalik injiq emas va parvarishi ham oson.

Gulni ko‘paytirish uchun bahor fasli, ayniqsa, uni boshqa tuvakka ko‘chirish vaqti qulay. Ildizlari ehtiyotkorlik bilan ajratilib, alohida tuvaklarga ekiladi. Tuvak tagida ortiqcha suv chiqib ketishi uchun teshik bo‘lishi, tuproq esa yumshoq va unumdor bo‘lishi kerak.

Spatifillum yorug‘ joyni yaxshi ko‘radi, ammo to‘g‘ridan to‘g‘ri tushadigan quyosh nuri barglarini kuydirishi mumkin. Shuning uchun uni yorug‘, lekin quyoshning kuchli nurlaridan himoyalangan joyga qo‘yish ma’qul. Tuproqning ustki qatlami quriganda sug‘oriladi. Issiq kunlarda haftasiga ikki-uch marta, qishda esa kamroq suv berish mumkin. Barglarini vaqti-vaqti bilan nam mato bilan artib, suv purkab turish ham foydali.

2 Dollar guli — bardoshli xona go‘zalligi



Dollar guli, ya’ni zamiokulkas, qalin va yaltiroq barglari bilan xonadonlarga ko‘rk bag‘ishlaydi. U xalq orasida baraka va farovonlik ramzi sifatida qadrlanadi. O‘simlik chidamli bo‘lib, ortiqcha parvarish talab qilmaydi.

Zamiokulkasni tuproq to‘liq qurigandan keyingina sug‘orish kerak. Yozda ham, qishda ham tez-tez sug‘orish shart emas. Eng muhimi, tuvakda suv to‘planib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Gul yorug‘ joyni yaxshi ko‘radi, ammo uni kuchli quyosh nurlaridan himoyalash zarur. O‘simlikni bargi yoki shoxchasi orqali ko‘paytirish mumkin. Ajratilgan qismni avval biroz quritib, so‘ng yengil tuproqqa ekish maqsadga muvofiq.

Xonadonimizdagi gullar ko‘rkamligi bilan kayfiyatimizga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularni to‘g‘ri parvarish qilish esa uzoq vaqt davomida yashil va chiroyli bo‘lib o‘sishiga yordam beradi. Eng muhimi, har bir gulning yorug‘lik, suv va tuproqqa bo‘lgan ehtiyojini hisobga olishdir.

3 Aloe — kam suv talab qiladi



Aloe qalin va go‘shtdor barglari bilan ajralib turadigan, issiq va quruq sharoitga moslashgan o‘simlikdir. Barglarida suv to‘planishi sababli u uzoq vaqt suvsiz ham yashay oladi. Shu bois gul parvarishlashni endi boshlayotganlar uchun ham qulay.

Aloe yorug‘ joyda yaxshi o‘sadi, biroq uni kuchli va tik tushadigan quyosh nurlaridan asrash kerak. Ekish uchun tagida teshigi bo‘lgan tuvak va suvni yaxshi o‘tkazadigan, yengil tuproq tanlanadi. Ona o‘simlik yonidan chiqqan yosh nihollarni ehtiyotkorlik bilan ajratib, alohida tuvakka ekish mumkin. Ekilgandan keyin dastlabki kunlarda sug‘orishni cheklash, keyinchalik esa tuproq to‘liq qurigach suv berish tavsiya etiladi.

Aloe barglari xalq tabobatida turli maqsadlarda qo‘llanib kelinadi. Biroq uni shifobaxsh vosita sifatida ishlatishda ehtiyotkorlik zarur.

4 Kalanxoe — chidamli va chiroyli o‘simlik




Kalanxoe qishda ham gullashi bilan ajralib turadigan, parvarishi oson xona o‘simliklaridan biridir. Qalin, yashil barglari va to‘p-to‘p bo‘lib ochiladigan gullari deraza tokchasiga chiroy bag‘ishlaydi.

Uni bahor va yoz oylarida novdasi yoki bargi orqali ko‘paytirish mumkin. Buning uchun sog‘lom qismi ajratilib, yengil va suvni yaxshi o‘tkazadigan tuproqqa ekiladi. Tuvak tagida ortiqcha suv chiqib ketishi uchun teshik bo‘lishi shart.

Kalanxoe yorug‘likni yaxshi ko‘radi. Biroq yozning jazirama kunlarida tik tushadigan quyoshdan biroz himoyalash kerak. Gullayotgan paytda tuvakning joyini tez-tez o‘zgartirmagan ma’qul. Tuproq to‘liq qurigach sug‘oriladi, chunki ortiqcha namlik ildizlarning zararlanishiga olib kelishi mumkin. Qurigan gullarni vaqtida olib tashlash esa yangi g‘unchalar hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Lobar JUMABOYEVA

8 TA FARQNI TOPING!



10 TA SO‘ZNI TOPA OLASIZMI?

A	B	E	K	I	K	**B**	U	G‘	D	O	Y
S	R	F	E	R	M	**E**	R	H	T	P	J
P	A	X	T	A	I	**K**	M	B	E	D	A
M	R	F	M	L	T	**O**	R	Y	B	A	H
E	I	J	O	K	Y	**B**	Z	D	Q	R	O
T	Q	S	N	N	M	**O**	L	X	H	Y	P
U	O	M	Y	L	V	**D**	E	H	Q	O	N

Ushbu katakchalar ichida qishloq xo‘jaligiga oid 10 ta yashiringan so‘z mavjud. So‘zlar gorizontal (chapdan o‘ngga) va vertikal (yuqoridan pastga) yo‘nalishda joylashgan. Har bir topilgan so‘z harflarini ketma-ket chiziq bilan belgilang.

Ushbu ikkita topshiriqning javobini “Yangi Bekobod” gazetasining Telegram messenjeridagi rasmiy sahifasidan bilib olishingiz mumkin.



“Inson bu – qisqa zaiflik va uzun bir da’vodir.

HAKIM TERMIZIY

DA’VONING DAVOSI NE?

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zamning yangi asari – “Da’vo” romani nashrdan chiqdi. Mutolaadan keyingi mulohazalarimni bayon qilishni kitob boshidan emas, sal oxirrog‘idan, 6-bobdagi bir holat tasviridan boshlamoqchiman. Bu holat ramziy ma’noda ham, real ma’noda ham roman mohiyatiga kirishda kalit vazifasini o‘taydi.

GALSTUKLI QASSOB

Asar qahramoni Jamshid Bo‘ron tilidan hikoya qilinadigan bu epizod shunday: “Ustoz ko‘rsatgan tomonga o‘tib, qotib qolay dedim. Pastak behining egri shoxida hozirgina terisi shilingan qo‘zi, oldiga peshband tutib, oq ko‘ylagi yengini shimarib olgan, erta-indin fan doktori bo‘lajak Ramziddin Po‘latov og‘zida pichoqni ko‘ndalang tishlagan ko‘yi abjirlik bilan son go‘shtini tanadan ajratib, supra ustidagi korsonga tashlamoqda. Qora kostyum bilan qizil bo‘yinbog‘ olma shoxiga osib qo‘yilgan. Kiyim-boshni almashtirib qilsa bo‘lmasmikan shu ishni? – Qassobchilik qutlug‘ bo‘lsin, aka! – dedim ham taajjub, ham zavq bilan”.

Xuddi shu oq ko‘ylakda yeng shimarib qo‘y so‘yayotgan odam bir kun kelib o‘zining ustozini “so‘yadi”, desam, ishonasizmi? Ha, bu muloyimxunuk da’vogar unga oq-u qorani tanitgan, yo‘l ko‘rsatgan o‘z muallimini qora kostyum va qizil galstukda, qo‘li ko‘ksida, beozorgina jilmayib, pichoqsiz so‘yadi. Hech narsa bo‘lmaganday, aslida “hamma vaqt shunday bo‘lishi” kerakday xijolatsiz “so‘yadi”. Soxta unvon, soxta shon uchun, “kimsan, akademik” degan nom uchun shunday tubanlikka boradi. U piri murshidini bo‘g‘izlayotganda ham soxta mulozamatini, o‘lik tabassumini darig‘ tutmaydi, ajabo! Bunday vaziyatda nima ham deya olasan? “Dunyosi tamom bo‘pti, Jamshid Bo‘ron, dodingni Xudoga aytasan endi!” – deb ich-ichingdan faryod ko‘tarasan, xolos.

Holbuki, ustoz Shokir To‘laganov bu murtadni o‘z farzandiday ko‘rardi. Shu bois, nekbin Jamshid Bo‘ron aynan Ramziddin-u Ruhiddin Po‘latovlar bilan bog‘liq bir muammosi haqida unga aytay deganda, ko‘nglidan shunday o‘y o‘tadi: “Ustozni aralashtiray desang, u kishining nima demog‘i ayon: “Ramziddinga ayt, o‘zingning akang-ku!” Soddagina qilib, bolalarcha ishonch bilan shunday deydi, aniq. O‘zimning akam?! Agar kechagi gumonlar rost chiqsa, u menga qanday aka-yu sizga qanday shogird bo‘lsin, Ustoz?!”

TARKI DUNYO, TARKI ILM

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi o‘ta murakkab sharoitda ilm-fanga, olimlarga munosabat nechog‘li cho‘kib ketganini hamma biladi. Talay ilm ahli qalam-qog‘ozini shamolga tashlab, bozorga chiqib ketgani ham bor gap. Ilm maydonida sobit qolganlar esa ko‘p ovora-yu aftoda bo‘ldilar. Bu fojia ham (ilimiliq so‘zlarni izlab o‘tirmay, bu holni fojia deb qo‘ya qolaylik) romanda keskirgina so‘zlar bilan o‘z narxida xolis baholangan.

“To‘g‘ri-da, deylik, sportga qarashilsa, zo‘r-zo‘r chempionlar chiqib, jahon bo‘ylab yurtning dong‘i oshadi; san’atkor-u yallachilarga nishon-pishon berib turilsa, to‘y-to‘ychig‘ingizga yaraydi; shoir-yozuvchisiga har zamonda “balli” deb qo‘ysangiz, el oldida so‘z topolmay qolganingizda, osmon-u falakdan kelib, joningizga ora kiradi – ilm-fandan nima naf, nima shamchiroq, xo‘sh?! O‘ttiz-qirqlab tadqiqot instituti, allaqanday markaz-u stansiya atalmish har turli muassasalar, ularda ivirsib yuradigan minglab tepakal “avliyo”… Shularning orasidan birorta Nobel sovrindori chiqdimi deng?!”

Menga akamday qadrdon bo‘lgan taniqli fan doktori, professorning o‘sha yillari: “Yelkamdagi plashimni olganimga 22 yil bo‘ldi. Almashtirishga imkonim yo‘q”, degan gapini, yana bir fidoyi, yirik biolog olimning: “Men ishxonaga faqat ishimni yaxshi ko‘rganimdan, usiz yashay olmaganimdan kelaman. Yo‘qsa, berayotgan oyliklari yo‘lga yetmaydi. Bir kosa ovqatni uyimdan ko‘tarib kelaman”, degan gaplarini eshitganman.

Adib ilm ahliga nisbatan bunday bepisandlik va zug‘umni “ilmbezorlik” degan birgina qo‘shma so‘zda ifodalab beradi. Shugina so‘zda jamiyatga baho ham, tashxis ham bor. Albatta, “miyasida nimadir g‘imirlab turgan mardum”ni istagan ko‘yga solish qiyin, chunki u fikrlayapti, fikr bormi, e’tiroz ham bo‘ladi. Bunday o‘r qavm esa “buyruq bilan ikki karra ikkini besh qilib bo‘lmaydi”, deb oyog‘ida mahkam turib oladi. Ba’zilarini buldozer bilan ham o‘rnidan jildirolmaysiz. O‘zi zo‘rg‘a yuradi-yu, lekin bunday masalalarga qolganda, qattiqroq shamolga yiqiladigan jussa birdan metin bir qoyaga aylanadi. Lekin zamon ham ularning ra’yiga muloyimgina qarab turmaydi, kerak bo‘lsa, bir siltab, tutday to‘kib tashlaydi. “Shunaqami hali?! Qarab turing, kerak bo‘lsa, ikki karra ikkingizni birga aylantirib qo‘yamiz! Yoping, daf qiling, bunaqa sarkash, tekinxo‘rlar mahkamasining bizga darkori yo‘q!” – degan do‘q bilan butun mamlakatni gumburlatadi. Qarabsizki, ahli ilmning boshini qovushtirib turgan, ozmi-ko‘pmi yangi g‘oyalar nish urib turgan dargoh bir do‘q-siyosat bilan “tekinxo‘rlar mahkamasi”ga aylanadi qoladi.

> *Adib ilm ahliga nisbatan bunday bepisandlik va zug‘umni “ilmbezorlik” degan birgina qo‘shma so‘zda ifodalab beradi. Shugina so‘zda jamiyatga baho ham, tashxis ham bor.*

Bunday munosabatdan so‘ng nima bo‘ladi? Shubhasiz, haqiqiy olimlar, fidoyilar, manglayiga olimlik qismati yozilganlar chetga chiqadilar, tarki dunyo, tarki jamiyat qiladilar. Endi ilmga kirib kelayotganlar esa tarki ilmni ma’qul ko‘radilar. Oqibatda, Alining maydonini soxta ilmkashlar, xushomadgo‘ylar, “delovoylar”, karnaychilar-u pufakchilar egallaydilar. Ularga “ilm” navbatdagi karyera, hech qursa, “ptichka” uchun kerak bo‘lib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Kerakli toshning og‘iri bo‘lmaganday, keraksiz tosh ham kun kelib asqotishi mumkin.

QISQA BIR ZAIFLIK VA UZUN BIR DA’VO

“Da’vo” romani jamiyatga, xususan, ziyolilar qatlamiga katta ko‘zgu tutdi. Bu ko‘zguda ko‘p narsalar ayon ko‘rinib qoladi. Yolg‘onlar, xiyonatlar, fitnalar, sotqinliklar… Ziyolilar jamiyati Tolstoy yuz o‘girgan kiborlar jamiyatiga aylanib qolmadimikin, degan ishtibohlarga borasiz. Kattagina ilm dargohining inspektori Dono Inoyatovna deydiki: “Bunaqasi bo‘lib turadi, Jamshidbek. Oramizdagi gap, ishingiz yuzasidan ikkita taqriz kelgan, ikkalasi ham ijobiy – o‘zim o‘qib ko‘rdim. U yog‘ini so‘rasangiz… diplomingizga imzo ham chekilgan bo‘lishi mumkin. Lekin o‘rtada birov eshikni tambalab turibdi-da. Kimligini bilarsiz – tepadagi mutasaddimiz, Ruhiddin Po‘latov. Do‘stona maslahat-da, o‘sha kishiga bitta qo‘ng‘iroq qilinsa, olam guliston. Yuqorida tanish-panishingiz bormi?

Jamshid o‘ylanib qoldi: Ruhiddin Po‘latov bo‘lsa, Ramziddin akaga qarindosh-parindosh emasmikan? Shunday bir gap qulog‘iga chalingandek bo‘lib edi. Biroq u nega to‘sqinlik qiladi? Kim uning arpasini xom o‘ribdi?

Jamshid boshini ko‘tarib ayolga qaradi, nozik bir joyiga tig‘ urilgandek ichdan seskandi, keyin nima deyarini bilmay, asta burilib xonadan chiqdi”.

Eshikni tambalash bir zamonlar Ruhiddin Po‘latov bilan ustoz Shokir To‘laganov orasida bo‘lib o‘tgan taqriqdan ham kichik bir mayda gap uchun edi.

Roman da’volar to‘qnashuvi, ambitsiyalar jangini tasvirlaydi. Kurashlar ochiq maydonda emas, orqavoratdan pana-panada kechadi. O‘zi ultonchaning ham iddaosi osmoncha. Hakim Termiziy “Inson nima?” – degan savolga: “Inson bu – qisqa bir zaiflik va uzun bir da’vodir”, deb javob bergan. Asarda xuddi shu “qisqa zaiflik va uzun da’vo”ning tuganmas o‘yinlari tasvirlanadi.

BIR KITOB ICHIDA YONMA-YON YASHAYOTGANLAR

Romanda xarakterlar qattiq ishlangan, har bir odam o‘z xarakteri, o‘z dunyosiga ega. Qatorlashib, inkubatordan chiqqan bir xil yasama personajlar emas ular. Bosh qahramon Jamshid Bo‘ronning nomzodlik dissertatsiyasi “o‘sha kezlar nisbatan yangi, ayni chog‘da qaltisroq – jadidlar mavzusida” ekanligi va ilg‘or olimlarning bugungi ta’lim-tarbiya borasidagi islohotlarga jadid bobolarning dasturiy ta’limotlarini asos qilish haqidagi g‘oyasiga moyilligi uning botinidan, ichki insoniy tutumlaridan darak beradi. Kimsan, hamma uchun hurmatli domla Elmurodov unga “Mavzuni o‘zgartir, ikki yilga qolmay himoyaga chiqasan, men kafil”, deyishiga qaramay, u yo‘lidan qaytmaydi. U paytlar birgina shaxsning kimgadir yoqmay qolishi evaziga ham tayyor dissertatsiyalar o‘n yil orqaga surilib ketishi mumkin edi-da. Jamshid qaysar va halol, darveshnamo ustozi Shokir To‘laganovning izidan boraveradi. To‘laganov esa – Vatan tarixini buzib ko‘rsatuvchilarga tish-tirnog‘i bilan qarshi turadigan, bosqinchilar istilosining ayanchli oqibatlarini chuqur biladigan, yurtining tarixi uchun ham, kelajagi uchun ham kuyunadigan haqiqiy ilm odami.

Romanda bu odamlardan tabiatan yiroq bo‘lgan ajabajab toifalar bor. Garchi bular tiynatan teskari bo‘lsalar-da, nailoj, bir kitob – bir dunyo ichida yonma-yon yashaydilar, o‘zaro munosabatlarga kirishadilar. Masalan, Junayd Jabborzoda, Shohiya Amur… Ismi shariflarning hashamatini qarang, otni hurkitadi-ya. Junayd bir qarasangiz, tuman prokurori, bir qarasangiz, viloyatda mas’ul lavozimda, yana bir qarasangiz, poytaxtda nufuzli martabada. Qizig‘i, Junayd bu mansab-u martabalar bilan cheklanib qolmaydi. Goho shoirga, goho bastakorga, goho rassomga aylanadi. “…dovruq-ovozasi to‘rt tomonni tutgan: Junayd Jabborzoda she’ri, Junayd Jayhun musiqasi, Junayd Jabborlining rangtasvir asarlari… Bamisoli bir kishi emas, butun boshli to‘da tinmay she’r-u qo‘shiq yozib, musiqa bastalab, yana bir galasi dastgoh qurib rasm chizib yotgandek!” Bu jumladagi “to‘da” so‘zida vaziyat, mohiyat yashiringan. Bu so‘z o‘rnida yozuvchi “guruh” degan so‘zni qo‘llaganda, bu so‘z o‘rniga tushmasdi, mohiyat ochilmasdi. Mana, mahorat qayerda.

Junaydning aralashmagan narsasi yo‘q. Bu eshikdan chiqsa, boshqa eshikdan kirib kelaveradi, eshik topilmasa, devorni o‘yib ham kirib keladi. Har baloga qobiliyatli. Har ishga suyagi yo‘q. Nima duch kelsa, o‘zini bir urib ko‘radi. “Jamshid Bo‘ron bo‘lasi Junaydga hayrat bilan tikilib qoldi. Ha, buning qo‘lidan keladi partiya tuzmoq! Boshqasi ham!..”

Bunday uddaburonlar keyingi paytlarda yana ko‘paydi. Go‘yo ular hamma narsani eplaydiganday, ularning qo‘lidan kelmaydigan ishning o‘zi yo‘qday,

13

12 DA’VONING DAVOSI NE?

juda faol, jonkuyarday ko‘rinishadi. Lekin, oxir-oqibat, uddaburonning uddalagan biron narsasi yo‘q bo‘lib chiqadi. “Jamshid Bo‘ron bo‘lasining ko‘kragiga yengilgina mushtlab, “Omadingni bersin”, dedi-yu sekin burilib katta ko‘cha sari yurdi. U o‘zini allanimada g‘olib sezardi, ammo ko‘nglida Junaydga nisbatan bir achinish ham bor edi”. Jamshid bekorga jingalaksoch bo‘lasi Junaydga ichida achinish hissini tuymadi. Chunki Junayd qisqa bir zaiflikning uzundan uzun da’vosi edi. Vijdonli odam bunday tomoshalardan zavqlanolmaydi, qiynaladi, iztirob chekadi.

“Bir mahal qayoqdandir Shohiya Amur paydo bo‘ldi. Yengiltakroq libosda: egnida allambalo deb yozilgan qora mayka, tizzasi yirtiq shim. Boshidagi keng-ko‘lam, ola-bula kepkasini qiyshaytirib kiyib olgan. Sumkachasini yelkasiga tashlab. Beg‘am, betashvish bir xirom bilan”. Bunday ayollar bitta zavodda bitta qolipdan chiqarilgan qo‘g‘irchoqlarday bir-birlariga juda o‘xshaydilar. O‘zlarini tutishlari, gapirishlari ham, noz-u karashmalari, burnidan nariga o‘tmagan maqsadchalari ham bir xil, bir xil. Ularga hayotda ko‘p duch kelasiz. Bir muddat mahliyo bo‘lib turasiz-da, tezda hafsalangiz pir bo‘ladi. Maftunkor jozibaning umri tovoqdagi chiroyday qisqa.

“– Bilmadim, – dedi kulib Jamshid Bo‘ron. – O‘zlariyam ko‘p farishta bo‘lmasalar kerak? Anovi qiz nima qilib yuribdi bu yerda? Inessa Armanding shumi?

– Qaysi qiz? Ha-a, Shohimi? Shohiya Amur. Ommani jalb qilish uchun shunaqalariyam kerak-da, jo‘ram! Qayerdan taniysan uni?”

“Shunaqalariyam kerak-da”. Shu gapning o‘zi ko‘p narsani bildiradi. Meni falon joyga taklif qilishyapti, mensiz bu davra o‘tmay qoladi, deb hovliqib, uch soatlab makiyaj qilib, jilpanglab boradiganlar shunchaki kimlargadir ermak bo‘layotganlarini bilmaydilar. Tag‘in bu kishim aktrisa, rejissyor, ssenarist, buning ustiga, ikkita she’r kitobi chiqqan. “Voy, “Men, men, men”ning ssenariysini onamning eri yozganmi bo‘lmasa! Bilmasmidingiz, she’r kitobim chiqqan-ku, ikkita!”

Ha, asarda har bir personaj o‘z xarakteri, fazilati-yu nuqsoni, jiddiyati-yu bachkanaligi bilan manaman deb ajralib turadi. Ular yozuvchining ixtiyori-yu mayli bilan to‘qib chiqarilmagan, bu obrazlarni hayotning o‘zi romanga taqdim qilgan. Siz har qadamda ularni uchratasiz. Jamiyatning qaysidir jabhasida “javlon urib” yurgan odamlar. Hatto asar boshida yilt etib bir ko‘rinib, keyin yo‘q bo‘lib ketadigan, o‘zicha “Turknoma” atlig‘ buyuk dastan yazayatgan” Selim turk ham xotirangizga muhrlanib qoladi. Asarda umuman ko‘rinish bermaydigan Alikning qiyofasini ham tasavvur qilsa bo‘ladi: “Olamda yo‘q kiyim-boshni egniga ilib, siyrak soqoliga oro berib, allaqanday tayinsiz xalqaro loyihalar bahona mamlakatma-mamlakat izg‘ib yuradigan, bir polyak qiziga uylanib ajrashgan Alik ona tilidan boshqa ko‘p tilni biladi. Otaginasiga tortib juvon tiliga ham mohir. Manovi xonimchamiz bilan ham soz shekilli, “o‘zlarining tili”da chuldirashib yuradi”.

Junayd Jabborzoda, Shohiya Amur, Ramziddin Po‘latovlar poygasida ustoz To‘laganov, Jamshid Bo‘ronlar o‘z-o‘zidan chetga chiqadilar. Ular uyaladilar, or qiladilar. Attangki, ularning safi siyrak, sanoqli. Lekin iddaochilar maydonni hech kimga bermaydi, orini sotib bo‘lsa-da, otini chiqarsa bo‘ldi. Har narsadan bir ilinj izlab, goh u yoqqa, goh bu yoqqa, har o‘tganda bir turlanib, eng chopqir otlarni choptirib o‘taveradilar. Ba’zilari lavozim-u mol-dunyo uchun qulay kelib qolsa hammani ulgurjisiga sotib yuboradi. Otang – bozor, onang – bozor!

TILI BIR ROVIYLAR

Roman yorqin uslubda yozilgan. Matnning o‘ziga xos ohangi ohanrabodek o‘quvchini tortib ketadi. Asarda voqealar uchinchi shaxs va birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Ba’zan ikkinchi shaxs tili ham aralashadi. Lekin shunisi muhimki, mutolaa vaqtida birinchi shaxs roviyligidagi bir bobdan uchinchi shaxs roviyligidagi boshqa bobga o‘tish jarayonida hikoyachilar almashinuvi sezilmay qoladi. Chunki asarda til yaxshi. Ravon. Tishga tegadigan joyi yo‘q. So‘zlar o‘z maromida quyilib keladi. Ayniqsa, Erkin A’zamga xos tagdor jumlalar-u iboralar alohida diqqatga loyiq: “Telefondagi ovozni ajratib bo‘lmasdi: erkak kishiga tegishli desangiz – juda ingichka, ayolmikan desangiz – allaqanday “temir” aralash”, “Qator-qator vazir-u vuzarodan tortib, mashhur xonanda-yu sozanda, shoir-u shuaro, mash-shog‘-u qashshoq…”, “Yangi tarix”dagi karnayvoy bola”, “o‘zaro nosamimiy lutf-u havolar”, “qo‘lyozmasining “so‘nggi xollari”, “qozonga yaqin kelsang, “kisht-kisht” deb quvishlar”, “silliqlab-siporishlab o‘tiradi”, “ikki o‘g‘il ham (o‘qishdan) ikki martadan “yiqilib berdi”, “nomi uzun o‘zi kalta film”… Bunday o‘ziga xos, shirali, badiiyat qaymog‘i bilan to‘yintirilgan jumla-yu iboralar asar sifatini oshirgan.

“Kibr-u da’vo insonni yuksaltirmaydi. Aksincha, inson o‘zini anglagan, o‘z ojizligini tan olgan sari ma’nan yuksaladi. Chunki haqiqiy kuch — o‘zini buyuk ko‘rsatishda emas, kamtarlikni asray bilishdadir.”

MING XIL MAYDA-CHUYDA GIPERMARKETI

Romanning avj pardasida ijtimoiy tarmoqlarda ustoz haqida tarqalgan xabarlar bugungi tarmoqlar ahvolini aniq ko‘rsatib beradi. Millionlab odamlar ivirsib yuradigan bu tarmoqlarda ne ishlar, ne mish-mishlar, ne qilmishlar urchimaydi, deysiz. Rosti ham bor-u, yolg‘oni undan ko‘p. Bu to‘s-to‘polon ichida yaxshi xabarlar ham suvga cho‘kkan toshday yo‘q bo‘lib ketadi. Allaqanday laykchilar, istashsa, bir odamni bir necha daqiqada badnom qilishlari ham mumkin, istashsa, bir ahmoqdan daho yasashlari ham mumkin. E’tibor qilmaslik kerak, deymiz-u, lekin bu olag‘ovur ham jamiyatda katta jarayonga aylanib bo‘ldi. Endi unga ming xil mayda-chuydalar do‘koni deb qarab bo‘lmaydi. Bu do‘kon zamonning zayli bilan gipermarketga aylangan. Ustoz yo‘qolib qolgandan so‘ng ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarlarga bir quloq tuting: “Kampiri bilan g‘ijillashib qolib, o‘zini jarga otgan ekan, jasadi topilmayotganmish”, “Katta olim bo‘lgani bilan rosa icharkan deng. Dachasi tog‘da ekan, tog‘-toshda mastalast daydib yurib, jonivorlarga yem bo‘lgandir-da”, “Zo‘r olim bo‘lgani uchun ko‘rolmaydigan hasadgo‘ylar ustidan yoza-yoz qilib, jonidan to‘ydirib yuborishgan-u boshini olib bir yoqlarga ketvorganmish”, “Unda o‘zi to‘g‘risidagi past-baland mishmishlarni o‘qiyverib… yashagisi kelmay qolibdi”…

YETISHMAYOTGAN ODAM

Asarning boshidan oxirigacha nurday o‘tadigan yana bir obraz bor. Bu tog‘a obrazi. Jamshid Bo‘ronni o‘z bolasidan ham yaxshi ko‘radigan tog‘a. Xuddi shu tog‘a asarning boshidan oxirigacha ajib bir ruh berib turadi. U asardagi hamma obrazlardan balandroqda yashaydi. Unda ortiqcha da’voni sezmaysiz, yoqayirtar iddaoni ko‘rmaysiz. Tog‘a timsolida zahmatkash, sodda, samimiy xalqingizning bir bo‘lagini ko‘rganday bo‘lasiz. “Choshgohga yaqin ma’raka tarqab, mozorboshiga borish taklifi chiqdi mendan. Nuqul kimdir yetishmayotgandek, hali zamon kimdir darvozadan kirib keladigandek bo‘laverdi. “Jamshidboy keldima, jiyanginam keldima…” Tog‘am!”

Ha, bunday odamlar doimo hamma joyda hamisha yetishmaydi.

Asarda tog‘a bilan bog‘liq yana bir lavha borki, bu lavha ham o‘sha yillardagi ko‘p kechmishlarga ishora qiladi. Jamshid Bo‘ron tog‘asining ta’ziyasiga qishloqqa borganda atrofga qarab, ko‘nglidan shunday bir o‘y o‘tadi: “Bamisoli shuncha yil mobaynida biror mardum bitta daraxt o‘tqazmagandek, chiqib eshik-derazasini bo‘yamagandek, ko‘cha-ko‘y o‘nqir-cho‘nqir, kechagi zamondan bu yog‘iga asfalt ko‘rmagan, uy-tomlar-chi, past-pastqam! Hamma yoqni balo urib ketgandek vayron-vayrona… Odamlar-chi, odamlar? Bari allaqanday mijg‘ov, ruhsiz, zerikarli. Dasturxon atrofidagi gap-gurunglari ham ho‘-o‘ almisoqdan qolgan diydiyolar”.

IKKI JUMLA VA IKKI DUNYO ORASIDA

Maqolamizning muqaddimasini asar oxirrog‘idagi bir lavha bilan boshlagan bo‘lsak, xotimasida asar boshiga qaytamiz.

Roman nashriyotdan kitobi chiqayotgan Jamshid Bo‘ronning kitob boshida ustoziga bir og‘iz bag‘ishlovi mojarosidan boshlanadi va shu mojaro yakuni bilan tugaydi. Birinchi bobda nashriyot direktori Sanaqulovich: “Kitobingizni, monografiyani ustozingizga bag‘ishlabsiz-ku. Bag‘ishlaganingiz yaxshi-yu, domlaning atrofidagi keyingi gap-so‘zlar… Shundoq katta olim, salkam akademik badnom bo‘lib qoldi-da endi, a, esiz! Qayoqqa ketgani ham noma’lum, dom-daraksiz emish-a? Chet elga qochgan deyishadi, rostmi shu gap?” – degan bir qop somonni pesh-peshlab, bag‘ishlovni olib tashlashni talab qiladi. Jamshid Bo‘ronning ichidan zil ketib, bag‘ishlovni olib tashlashga undagan nashriyot direktoriga: “Kitob meniki, kimga bag‘ishlash o‘zimning ishim”, degan gapi asar oxirida yanada qat’iy vijdoniy tus oladi. Shuncha, bir kitoblik voqealardan keyin Jamshidning nashriyot xodimi – kitob muharririga yuborgan xati shunday: “Muniraxon! Iltimos, kirib kattangga – Sanaqulovichingga ayt, bag‘ishlov qat’iyan mana bunday bo‘lsin: “Ushbu kitobimni unutilmas Ustozim, akademik Shokir To‘laganovning o‘chmas xotirasiga bag‘ishlayman”. Tamom!”

Romanning yaxlitligi, butunligi ham shundaki, undagi barcha hodisalar ana shu ikki jumlaning orasida bo‘lib o‘tadi. Asar boshida va oxirida aytilgan bu ikki jumla qator voqealarni birlashtiradi, cheki-chegarasi yo‘q da’vo-iddaolar, xiyonatlar, bir-birini sotish mojarolaridan ma’nan butun chiqqan Jamshid Bo‘ronning Shaxsini namoyon qiladi.

Bu e’tirof Ustozning o‘jar, qaysar, bilganidan qolmaydigan, o‘rischa aralashtirib gapiradigan qizi Bibixonimning tilidan Jamshidni otasiga mengzab: “Sizlar asli bir odamsizlar-ku”, deb aytgan gapida yanada aniq ko‘rinadi. Shokir To‘laganovning qizi haqida gap ketganda, bir vaqtlar gazetada rossiyalik bir akademikning qizi bilan bo‘lgan suhbat esga tushadi. Otasi bilan ko‘p masalalarda chiqisholmayotgan qizga muxbirlarning: “Nega otangiz bilan kelisholmaysiz, axir, u mashhur akademik-ku?” – degan savoliga qiz: “Hamma gap shunda, men akademikning qiziman, otam esa oddiy dehqonning o‘g‘li”, deb javob beradi. Garchi Bibixonim qancha murakkab xarakterga ega bo‘lmasin, To‘laganovning ma’naviy muhiti havosidan bahramand bo‘lib o‘sgandi. Bu bahramandlik o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymasdi. Jamshid g‘oyib bo‘lgan domlasini izlab, qiz bilan birga qaytganda, buni anglaydi: “Ilk ko‘rishgan kunidan buyon bir-biriga yotsirab yurgan ikki odam bugun aka-singil bo‘lib qaytarkanmiz, qizning boyagi gapi xayolimdan ketmasdi: “Sizlar asli bir odamsizlar-ku…”

Romanda teran ramziy ishoralar bisyor. Bu ramzlarni sharhlash alohida mavzu. Ustozning yo‘qolib qolishi ham aslida ramziy ma’noga ega. Bu hodisa zimnida jamiyatda boy berilayotgan qadriyatlar, tutumlar, halol fazilatlar, mahv bo‘layotgan tafakkur, yo‘qolayotgan vijdonga ishora borday. To‘satdan g‘oyib bo‘lgan ustoz Shokir To‘laganovdan Jamshid Bo‘ronga kelgan oxirgi SMS xabar shunday yakunlangan: “Meni qidirmanglar, yer ustida qiladigan ishim qolmadi…” Bu og‘ir gap. Shukur Xolmirzayevni o‘limidan oldin ko‘rgani borganimda, uning horg‘in nigohlaridan shu ma’nodagi gapni o‘qiganman. Yana bu gap Abdulla Oripovning bir she’rini eslatadi:

Mening Yer ustida tanishlarim kam,
Mening Yer ostida do‘stlarim ko‘proq.

KIBRI HAVOMI, KIBRI DA’VO?

Maqolaga “Da’voning davosi ne?” deb nom berdik. Da’voda mudom xatar borligi rost. Zero, bobolarimiz to‘qigan “kibr-u havo” iborasini bizning zamonamizda “kibr-u da’vo” deb o‘zgartirsak, mantiqdan uzoqlashmaymiz. Agar da’vo haddan oshib ketsa, xiyonatlar, sotqinliklar, hasad, tubanliklarga manba bo‘ladi. Xo‘sh, xulosa nima? Taxminiy bo‘lsa-da, da’voning davosi bormi? Bu haqda bir narsa deyish qiyin. Bir shoir aytganiday: “Dardning o‘zini ko‘rsatib berish ham katta gap”. Faqat shuni qo‘shimcha qilish mumkin, uzun da’vodan oldin qisqa zaiflik bor. Har kim Hakim Termiziy uqtirgan “qisqa zaiflik”ni angladimi, bas, kibr-u da’vo o‘z-o‘zidan chekinadi. Yana yapon shoirining bir satri esga tushadi: “Men ojizman va avaylayman o‘zimning ojizligimni”. O‘zining ojizligini avaylagan odam kuchli bo‘ladi.

Eshqobil SHUKUR

“Jadid” gazetasining 2026-yil 11-sentyabrdagi 37-sonidan olindi.

Hikoya

CHEKSIZLIKDAGI TELBA



VLADISLAV AVDEYEV,
rusiyzabon Yoqutiston yozuvchisi (1942–2017)

Zoya Aleksandrovna tuni bilan uyqusizlikdan to‘lg‘anib chiqdi. So‘nggi oylarda yuzinchi marotaba bo‘lsa kerak, qirq besh yosh — asalga esh yosh ekanligini o‘yladi. Lekin Zoya xonimda hammasi chappasiga aylandi. Qirq beshgacha hech qanaqangi dard-pard yuqmadi, keyin esa ko‘z tegdi: yuragi o‘ynoqlab ketadimi ey, oshqozoni bezovta qiladimi ey, u ovqatni yema, bu ovqatni yema, tag‘in uyqusizlik dardini orttirib olgani yetmay turgandi.

Alla-pallada Zoya Aleksandrovnaning ko‘zi ilinibdi. Olis bolalikdagi bir kun ikir-chikirigacha takrorlangan tush ko‘ribdi. Go‘yo kimdir o‘sha kunni tasmaga muhrlagan-u, hozir unga ko‘rsatmoqda edi... Mana, u sinfga kirdi, yozuv taxtasiga aji-buji qilib “Zoyka — ahmoq!” deb yozib qo‘yilibdi. Zoya o‘ylab o‘tirmay bo‘rni oldida, sal pastroqqa “Petka Degtyaryov esa — jinnining ikkilanmasi” deb yozadi. Petka Degtyaryov — ko‘kko‘z, sochlari andak jingalak, yanoqlari keng yigitcha to‘rtinchi sinfdan beri Zoyaga unda-bunda e’tibor qilib turadigan odat chiqardi. Qolgani — ilk bo‘sa, dil izhori, hech qachon ayro bo‘lmaslik haqidagi ahd-paymon keyinroq, bir necha yil o‘tib sodir bo‘ldi... U vaqtda esa...

Birinchi tanaffusdayoq yozuv taxtasida javob tayyor bo‘ldi: “Zoyka — ahmoqning uchinchi darajasi”. Ikkinchi tanaffusda Zoyka ham qo‘l qovushtirib o‘tirmadi: “Petka Degtyaryovning telbaligi cheksizlikka teng”. Keyin esa... Shu joyida Zoya Aleksandrovna uyg‘onib ketdi — soat qo‘ng‘irog‘i chinqirayotgandi. Birmuncha vaqt tushini eslab qilt etmay yotdi.

Eng qiziqarlisi, bedorlikdan so‘ng Zoya Aleksandrovna darmoni qurib yurardi, bugun esa tong otardagi tushi, xuddi olis bolalikdagi qayta jonlangan bir kun kuch bag‘ishlagandek — bardam-baquvvat, yashargandek o‘rnidan turib ketdi. Keyin nima qilmasin — yuvindi, qahva ichdi — yuzidan tabassum tushmadi. Xonadon yo‘lagidan ham kulimsirab chiqdi.

Ko‘chada ketarkan, hamma-hammasini xotirladi... Petkaning telbaligi cheksizlikka tengligini yozuv taxtasiga bitgach, bolapaqir uni maktab yonida kutib, yo‘lini to‘sdi. Yoqalashadi deb o‘yladi va har ehtimolga qarshi Petkaning boshiga tushirish uchun portfelini o‘ngayroq ushladi. Lekin kutilmaganda Petka:

— O‘zi umuman qizlarni ko‘rishga ko‘zim yo‘q, hammasi chaqimchi, yig‘loqi bo‘lishadi, ammo-lekin sen boshqachasan. Kel, do‘st bo‘lamiz.

Albatta, shunday yigit unga do‘stlashishni taklif qilib turgandan keyin bu gaplar Zoyaga halimdek yoqib tushdi, ammo u qiz bolaligini qildi (qiz bola nozi bilan shirin!), shu bois burnini jiyirib javob berdi:

— Ho-o, yana nima xohlaydilar?!

Shunday dedi-yu, indamay ketaverdi. Biroq Petka unga yetib olib, yana yo‘lini to‘sdi.

— Yo‘liga shunday demayapman-ku, chinakamiga do‘st bo‘lishni taklif qilyapman, keyinroq, katta bo‘lganimizda turmush quramiz.

— O‘rgildim sendaqa kuyovdan! Balki men kosmonavtga erga tegarman.

— Demak, men kosmonavt bo‘laman, — dedi Petka dadillanib.

— Xo‘p, mayli. Faqat sen menga xat-pat yozib yurmagin, darsdan keyin ham kuzatma. Do‘st tutinganimizni birov bilmasin.

— Roziman. Yanayam qiziqroq bo‘ladi. Lekin aytib qo‘yay, bitta-yarimta senga shilqimlik qilsa, basharasini bejab qo‘yaman!

Shu tariqa ularning ajab do‘stligi boshlandi...

Shu on ishtonini tizzasigacha shimarib olgan bolakay Zoya Aleksandrovnaning xayollarini to‘zg‘itib yubordi. Taqqa to‘xtadi. O‘ziyam tizzasiga ishtonini shimarib olgan bolani o‘ttiz yildan beri ko‘rmagan edi. Jinqarcha bo‘r bilan devorga allanimalarni yozardi. Yonida katta yoshli ayol turganini ko‘rib, bo‘rni tashladi-da, ura qochdi, devorda esa: “Katka — ahmoq!” degan yozuv. Zoya Aleksandrovna bo‘rni olib, qo‘lida o‘ynatgancha ketmoqqa tushdi-yu, shartta ortiga burilib, devorga tezgina yozdi: “Petka Degtyaryov — jinnining ikkilanmasi”. So‘ngra bo‘rni devor yorig‘iga ehtiyotlab joyladi va baxtiyor tabassum-la nari ketdi.

Ishda uning baxtiyorligi e’tibordan chetda qolmadi:

— Voy, o‘zim o‘rgilay, Zoya Aleksandrovna, bugun namuncha kuydirmajon bo‘lmasangiz?!

Bunisi-ku bo‘limda, yo‘lakda ketayotganda burunlari befarqgina o‘tib ketgan erkaklarga — ayollar o‘zlariga qanday nigoh bilan tikilishlarini sezishadi — jonlantiradigan nish tekkandek, xuddi Zoya Aleksandrovnadan taralayotgan ko‘rinmas nur nayzasi ularni mavh etgandek g‘imirlab qolishdi.

Ishdan keyin ham shunday bo‘ldi. Ilgarilari Zoya Aleksandrovna ishdan kela solib istar-istamas ovqat cho‘qilar, televizorni yoqib, oyoqlarini chiqarib olgancha oromkursida yarim tungacha o‘tiraverardi. Lekin bu kecha ruhi tetik, tek turgisi kelmasdi — kvartirasini o‘ta shinam holatga keltirdi. Binobarin, kayfiyati shu darajada ediki, eri bilan ajrashganidan beri ilk bor hali hammasi oldinda ekanini o‘yladi. Qolaversa, qirq besh yosh — asalga esh yosh ekanini ham.

Eri bilan o‘n yilcha oldin ajrashgan — dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydigan, ichkilikdan boshqasini nazariga ilmaydigan erining xurmacha qiliqlariga ortiq dosh berolmadi. Qizi bilan qolaverdi. Avvalboshda o‘zini bardam tutdi, qizi erga tegib, hayyo-huyt degancha mashriq tomonlarga survorgach, cho‘kib qoldi. Mana, yana unda hayotga muhabbat paydo bo‘ldi, ajablanarlisi, uyqusizlikka chek qo‘yildi. Hatto qotib uxlaganidan ishga kech qolay dedi.

Ertalab o‘zi bitgan yozuv yonidan shoshib o‘tib ketayotib, “Hozir qayerda ekan-a, Petka Degtyaryov?” deb o‘yladi. To‘qqizinchi sinfdan keyin Petkaning otasini — u harbiy edi — g‘arbiy chegaralarga o‘tkazishdi va Degtyaryovlar jo‘nab ketishdi. Xayr-xo‘shlashayotib o‘ninchini bitirganlaridan so‘ng Moskvada, albatta, uchrashishga va’dalashishdi — bitta institutga kirmoqchi bo‘ldilar. Ammo hayot o‘zani boshqa tomonga burilib ketdi. Mehnat ta’tilidan qaytayotgan Zoykaning ota-onasi uchoqda halokatga uchradi, yetim qolgan qizni Vera xolasi boshqa shaharga olib ketdi. Institutni qo‘yib, ishlashga to‘g‘ri keldi. Keyinroq sirtqi bo‘limda o‘qidi. Turmushga chiqdi. Endi Petka Degtyaryov xotirasini ko‘p ham band etavermasdi, lekin shunaqa paytlar bo‘lardiki... u bilan bir marta ko‘rishish uchun bor-budini berishga tayyor edi.

Zoya Aleksandrovna Petkani qirchillama erkak qiyofasida tasavvur qilishga urindi, bo‘lmadi.

Kunlar bir-birini quvalab o‘taverdi, devordagi yozuv Zoya Aleksandrovnani olg‘a undayverdi. Lekin yog‘ingarchilik o‘z ishini qildi — yozuv xiralashib qoldi...

Hammasi shu bilan tugaydigandek edi. Xulosa ham paydo bo‘ldi — bolalikni xotirlash uyqusizlikni yengish uchun yaxshigina chora.

Biroq shunday bo‘ldiki — “shunday bo‘ldi” deyapmiz-u, taqdirning o‘zi oldindan hammasini tayyorlab qo‘ygandi.

— Petka Degtyaryov aynan shu shaharda yashardi.

Bir kuni “yarimta” izlab yurib — qayoqqa qarama, yetti yuz grammli shishalar, unda esa faqat yarimtaga yetadigan aqcha bor — Degtyaryov Zoya Aleksandrovna ishga qatnaydigan ko‘chaga kirib qoldi. Devordagi nim o‘chgan yozuvni ko‘rib, avvaliga shunchaki o‘tib ketmoqchi bo‘ldi, dunyoda Degtyaryovlar kammi, boz ustiga, nega bitta-yarimta yigitchaning ismi Petka bo‘lmasin ekan. Ammo “jinnining ikkilanmasi” unga nimalarnidir eslatib yubordi... Degtyaryov atrofga alang-jalang boqib, devorga yaqin keldi. Peshanasini qashib, uzoq o‘yga sho‘ng‘idi, keyin devor yorig‘idagi bo‘rni olib, qo‘llari qaltirab pastga: “Zoyka — ahmoqning uchinchi darajasi”, deb yozdi. Bo‘rni joyiga qo‘yib, oyog‘ini qo‘lga oldi: shuncha yildan beri ilk bor mijg‘aloq shimi, kir-chir ko‘ylagidan uyalib ketgandi... Endi yarimta deganlari uni umuman qiziqtirmay qo‘ygandi. Degtyaryov xoli qolib, o‘ylab olish uchun uyiga shoshdi.

Eshikni qulflab, ko‘zgu oldida turib oldi, soqoli olingan, qarimsiq, solqi basharasiga uzoq termuldi.

Nahotki, Zoyka shu yerda, shu shaharda bo‘lsa? Qaytib ko‘rmasam kerak deb o‘ylagandi-ya... Nahotki, Zoyka shu yerda bo‘lsa?

Kimlardir eshikni gurs-gurs urib taqillatar, baqir-chaqir qilardi — aftidan, shishadoshlari boshog‘riq qilgani chaqirishyapti, lekin Degtyaryovning qulog‘i tom bitgandi. U dog‘-dug‘ uvada matras-u eski paxmoq adyoldan bo‘lak hech vaqosi yo‘q karavotda o‘tirardi, bolish o‘rniga paxtalik nimchani ikki buklab olgan. Barmoqlarini chirmashtirgancha, o‘y-xayollar sahrosida kezinardi...

Agar Zoyka shu yerda bo‘lsa... O‘zlarining bolaligi o‘tgan shaharga borib keldi, ota-onasi rixlatga ketganini, qizgina xolasi bilan ketib qolganini bildi. Lekin qayoqqa ketdi, yolg‘iz O‘ziga ayon.

Endi bilsa, Zoyka yonginasida ekan — devordagi yozuv faqat ungagina tegishli. Devor yoniga chopib borib, tun-u kun Zoykani kutish istagi kuchayib boraverdi. Ammo uning ko‘ziga shu ahvolida ko‘rinish... Hatto stol-stul ham sotilgan kvartiraga odam chaqirib bo‘ladimi? Oxirgi paytlarda ishyoqmasligi uchun tiqib qo‘yishmagan bo‘lsa-da, baribir ikki yildan beri ishsiz — avvaliga televizor, magnitofon, sovutkichni pulladi, so‘ng qolganini ham arzongarovga o‘tkazdi.

O‘ylab-o‘ylab, oxiri birinchi galda ish topishga ahd qildi. Bir zamonlar tuppa-tuzuk muhandis edi, har xil teploxodlarda yurardi, qirg‘oqda guruh muhandisi bo‘lib ishlardi. Qirg‘oqqa xotini tufayli tushgandi, lekin baribir foydasi bo‘lmadi — etagidan ushlab turolmaydi-ku, ajrashishdi. Keyin boshqasini uchratdi, shishaga ruju qo‘ydi, ming martalab ishini alishtirdi, ishdan bo‘shadi...

Ertasiga ertalab bir tanishining oldiga bordi. U bilan bir vaqtlar bitta teploxodda suzishgandi, hozir o‘sha tanishi portda bosh muhandis. Petka Xudoning zorini qilib ichishni tashlaganini aytdi. Eski qadrdoni esa:

— Senga ishonaman. Xodimlar bo‘limi bilan gaplashib ko‘raman, guruh muhandisligiga olishar. Hartovur, dizel nima ekanligi esingdadir. Faqat ikki kundan keyin kelasan. Turqingga bir qara, kimlarga o‘xshab qolibsan...

Zoya Aleksandrovna yangi paydo bo‘lgan yozuvni ko‘rib taxta bo‘lib qoldi... Yo‘q, bo‘lishi mumkin emas... Nahotki, Yaratganning o‘zi rahm etgan bo‘lsa, axir, buni faqat birgina odam yozishi mumkin... Petka Degtyaryov shu yerda, shaharda... Yo Qodir Egam!

Zoya Aleksandrovna bo‘rni olib yozdi: “Petkaning telbaligi cheksizlikka teng”.

Zoyka go‘yo kar va ko‘rday bir-bir odimlab ketardi. U shu yerda... yonginasida... shu ko‘chadan yurgan... Yo Rabbim... qanday baxt! Umid tugul ilinji ham qolmagandi-ya.

Oqshom mahali portlab ketay dedi, yana bir bor borib, yozuvga tikildi, hatto ushlab ko‘rdi.

Ertasiga ishga taraddudlanayotib hamma ko‘ylaklarini ko‘zdan kechirdi. Zoya Aleksandrovna negadir Degtyaryov uni, albatta, devor yonida kutib turishiga ishonchi komil edi. Bo‘lajak uchrashuvga oshiqsa-da, yuragini vahm bosardi, axir, shuncha suvlar oqib o‘tdi, birdan Petkaning ko‘ngli qolsa-ya. Benihoya hayajon ich-ichidan toshib kelaverdi, uchragan erkak Degtyaryov bo‘lib ko‘rinaverdi, yuragi qinidan chiqib ketay deydi-ya...

Degtyaryov ikki kun davomida qolgan-qutgan kiyimlarini yuvdi, qusqi, oyoq izi bo‘lgan polni yog‘ tushsa yalaguday qilib tozaladi, isqoti sachragan gulqog‘ozlarni esa qoldirishga to‘g‘ri keldi.

Avtobuslar qatnamasidan oldinroq sahar-mardonlab ishga bordi, keyin to‘g‘ri Zoyaning ko‘chasiga, “Petka Degtyaryovning telbaligi cheksizlikka teng”ga qarab turib ishonch hosil qildi: Zoyka shu yerda, shaharda. Bo‘rni olib yozdi: “Qalaysan, Zoya?!” Chakalakzorda adashib qolib, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgach, tuyqus jonajon maskaniga kelib qolgandek kayfiyatda edi hozir...

Eski tanishi aldamabdi, Degtyaryovni bosh muhandis kafilligi bilan ishga olishdi, picha bo‘nak ham berishdi.

Ertasiga yana barvaqt uyg‘onib, badantarbiya qildi va Zoyaning ko‘chasiga yo‘l oldi. Uzundan uzoq maktubni o‘qiganday anchagacha turib qoldi, devorga esa bor-yo‘g‘i ikkita so‘z yozilgandi: “Bormisan, Petya?!” Shodligidan qo‘lida yurmoqchi bo‘ldi, ammo yerga gursillab yiqildi, jismi-tani o‘ziga bo‘ysunmasdi... Baribir shunchaki ketishni ep ko‘rmadi. Bo‘rni olib, qo‘lida aylantiraverdi-aylantiraverdi, birorta so‘z kelmadi.

Degtyaryov o‘zini kuzatib turganlaridan bexabar edi. Zoya Aleksandrovna yaqin-atrofdagi podyezdga yashiringancha, Degtyaryovdan ko‘z uzmasdi. U ketgach, Zoya Aleksandrovna ham bir ahvolga tushib bitta-bitta qadam tashlab uzoqlashdi.

Zoya Aleksandrovna Petka Degtyaryovni o‘zicha har tusda tasavvur qilardi, ammo bu ahvolda emas. Ozib-to‘zgan, qarimsiq, g‘ijimlangan shim, yengi kalta pidjak, sochlari hurpayib to‘zg‘igan. Eski hammom, eski tos. Birdaniga sobiq erini eslab ketdi, ichib olib janjal ko‘tarar, ajrashganlaridan keyin ham Zoya Aleksandrovnani poylab, aroqqa pul so‘rardi...

Yo‘q, bu o‘zi kutgan, uchrashishni iltijo qilib so‘ragan Petka Degtyaryov emas. O‘zing kechir... nimalarni orzulabdi-ya... umidlari-chi...

Ishda Zoya Aleksandrovnani ko‘rgan ayollar uchib tushishdi:

— Zoya Aleksandrovna, sizga nima bo‘ldi? Tobingiz qochdimi?

Zoya Aleksandrovna uzzu kun bu yog‘iga nima qilmoq kerakligini o‘ylab yurdi.

Kechasi ko‘z yoshi qilib oldi. Lekin qarori qat’iy — ishga boshqa ko‘chadan qatnaydi.

Tag‘in bir-biriga ikki tomchi suvday o‘xshash tunlar ichakday cho‘zilgandan cho‘zildi. Zoya Aleksandrovna ishdan kela solib istar-istamas ovqat cho‘qilar, televizorni yoqardi... Yana tinkaquritar bedorlik boshlandi, uyqu dorisi ichishga to‘g‘ri keldi.

Oradan bir oycha vaqt o‘tib devorda yangi yozuv paydo bo‘ldi: “Zoya, ketma!” Allakim shumlik ham qilibdi: “Hammasini kechirdim”.

Kuzak yomg‘irlari hammasini yuvib ketdi, faqat bir-ikkita yakkam-dukkam harflar qoldi, xolos.

Sentyabr oxirlaganda devor yonida mast kishi paydo bo‘ldi — soch-soqoli o‘sib ketgan, olqindining o‘zgina-si. Yig‘lamoqdan beri bo‘lib ko‘ksiga mushtlar va o‘kirardi:

— Menkim, Petka Degtyaryov — telbaligim cheksizlik qadar! Menkim, Petka Degtyaryov — telbaligim cheksizlik qadar!

Rus tilidan
Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma № Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1 Bosishga topshirish vaqti: 10:00. Bosishga topshirildi: 11:00.

ISSN 2091-5497